

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**

O‘zbek tili yo‘nalishi

14.41-guruh bitiruvchisi Mo‘minova Muhtaramoyning

**“Maqollar va ularning badiiy matnda qo‘llanishi”
mavzusidagi**

BITIRUV - MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: N.UMAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farg‘ona – 2018

Bitiruv-malakaviy ish kafedraning 2018-yil 10-maydagi yig'ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **E.IBRAGIMOVA**

Taqrizchi: _____ **M.TO'YCHIBOYEVA**
Farg'ona shahar 2-tibbiyot kolleji
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi,
kafedra mudiri

MUNDARIJA

Kirish	
I bob. Xalq maqollari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	
I. 1. Maqol va matal xususida.....	
I.2.Maqollarning morfologik xususiyatlari.....	
I.3. Maqollarning sintaktik va semantik xususiyatlari.....	
I.4. Maqollarni mavzuiy guruhlar.....	
II bob. Badiiy matnda xalq maqollarining uslubiy xususiyatlari	
2.1. Maqollarda qo‘llangan asosiy leksik birliklar.....	
2.2. She’riy matnda qo‘llangan maqollar.....	
2.3. Nasriy matnda qo‘llangan maqollar.....	
XULOSA	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “...fan ijtimoiy jarayonlarga faol ta’sir etadigan, bizga, ya’ni amaliyot xodimlariga ishimiz mazmuni va xarakterini belgilab beradigan, o‘zini-o‘zi sozlab turadigan va o‘zini o‘zi boshqaradigan sistemaga aylanishi kerak”¹, qolaversa, “fikrlash tarzimizni mustaqillik ruhiga moslashtirish, bir yoqlama va tor fikrlashdan voz kechish - bugungi Ma’naviy Tiklanish davrimizning eng muhim masalalaridan biridir”². Ana shu bois ma’naviy tiklanish davrida “o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘lishi”³ni unutmasligimiz kerak.

Ona tili milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tuzumi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odatini o‘zida aks ettirib, to‘plab, avloddan-avlodga etkazib berish tilning milliy-madaniy mundarijasidir. Bu mundarija tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo‘ladi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrli, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Hikmatli so‘zlar, maqollar – hech bir podsho e’lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir⁴.

Maqollarni “hayot qomusi”, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri echishga o‘rgatadi. SHuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiylidir.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида.Т.: “Ўзбекистон”, 2011. 81-б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997.150-151-б..

³ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2009. 83-б.

⁴ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш.Хикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990. 5-б.

M.Qoshg'ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o'zining "Devon"iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo'llanishini arab tilida izohlagan edi. "Devonu lug'otit turk"da xalq og'zaki ijodiga oid 300dan ortiq she'riy parchalar, 291ta maqol va matallar keltiriladi¹.

Uzoq yillardan beri olimlar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o'rganish ob'ekti sifatida tadqiq etildi. Bu borada SH.Rahmatullaev, YA.Pinxasov, G'.Salomov, Q.Samadov, SH.SHorahmedov, X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova singari olimlarning xizmatlari katta. O'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik va ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan; xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari adabiy til va dialektlarning leksik doirada o'rganilgan.

Keyinroq o'zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi, ya'ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, SH.SHomaqsudov, SH.SHorahmedov H.Berdiyev, R.Rasulov, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiev, M.Hakimov²larning ishlarini keltirish mumkin.

O'zbek tilshunosligida xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'atini yaratish kabi muhim vazifa B.Jo'raeva tomonidan uddalandi³. Olima tomonidan tuzilgan, tartiblangan paremik birliklar sinonimiyasi asosida yaratilgan mazkur lug'atni ushbu yo'nalishda yaratilajak leksikografik ishlarning debochasi sifatida baholash mumkin.

¹ Абдурахмонов Ғ. "Девону луғотит турк"асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. 49-б.

² Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Т., 1970; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Т., 1987; Ш.Шоабдурахмонов, Ш.Шораҳмедов. Ҳикматнома. Т., 1990; Ҳ.Бердиёров, Р.Расулов. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Т.: Ўқитувчи, 1984; Жўраҳонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // «Ўзбек тили ва адабиёти». 1974, 4-сон, 52-55-бетлар; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. -Самарқанд. 1971, 84-87-бетлар; Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. -Тошкент: «Фан», 1971. -176 бет

³ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.

Bu kunga qadar xalq maqollari filologlar tomonidan jiddiy o'rganilgan bo'lishiga qaramay, ularning uslubiy xususiyatlari to'liq tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Xalq maqollarining struktur, semantik, mavzuiy va uslubiy xususiyatlarini o'rganish orqali maqollarning lingvistik xususiyatlarini batafsil yoritish mumkin bo'ladi. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Maqollar va ularning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotda quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi:

- xalq maqollari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- maqol va matallarning semantik xususiyatlarini aniqlash;
- maqollarning sintaktik va semantik xususiyatlarini yoritish;
- maqollarni mavzuiy guruhlarini belgilash;
- maqollarda qo'llangan asosiy leksik birliklarni aniqlash;
- she'riy va nasriy matnda qo'llangan maqollarning xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqot obyekti. O'zbek xalq maqollari, badiiy matnda qo'llangan maqollar.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida dialektikaning umumiylik va xususiylik, shakl-mazmun tamoyillari tanlandi. Ishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- xalq maqollari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi;
- maqol va matallarning semantik xususiyatlari aniqlandi;
- maqollarning sintaktik va semantik xususiyatlari yoritildi;
- maqollarni mavzuiy guruhlarini belgilandi;
- maqollarda qo'llangan asosiy leksik birliklar aniqlandi;
- she'riy va nasriy matnda qo'llangan maqollarning xususiyatlari yoritildi

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi ilmiy xulosalar tilshunoslikning,

xususan, badiiy matn tahlili, paremeologik birliklar muammolarini ma'lum ma'noda oydinlashtirishga ko'maklashadi. Tadqiqot natijalari oliy va o'rta maxsus ta'limda uslubshunoslik fanlarini o'tishda, shuningdek, "Badiiy matn tahlili", "O'zbek tili stilistikasi" singari fanlarda ham amaliy jihatdan foydalanish mumkin. BMI xulosalari maqollarning lisoniy tabiatini ochib beruvchi mavjud nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari oliy va o'rta maxsus ta'limda uslubshunoslik fanlarini o'tishda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining morfologiya va leksikologiya bo'limlarini o'qitishda ham amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. BMIning umumiy hajmi 54 sahifani tashkil etadi. Ishda 10 950 ta so'z qo'llangan.

I bob. Xalq maqollari va ularning lisoniy xususiyatlari

1. 1. Maqol va matal xususida

Ona tili milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiati, u xalqning iqtisodiy tuzumi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san’ati, fani, urf-odatini o‘zida aks ettirib, to‘plab, avloddan-avlodga etkazib berish tilning milliy-madaniy mundarijasidir. Bu mundarija tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo‘ladi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish maqollar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrli, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Hikmatli so‘zlar, maqollar – hech bir podsho e‘lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir¹.

Maqollarni “hayot qomusi”, xalq og‘zaki ensiklopediyasi, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri echishga o‘rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi. SHuningdek, maqollar o‘z ijodkori bo‘lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og‘zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiylidir.

M.Qoshg‘ariy XI asrdayoq turkiy xalqlarning hikmatli iboralaridan juda katta qismini o‘zining “Devon”iga kiritib, ularni qanday vaziyatda, qaysi mazmunda qo‘llanishini arab tilida izohlagan edi. “Devonu lug‘otit turk”da xalq og‘zaki ijodiga oid 300dan ortiq she’riy parchalar, 291ta maqol va matallar keltiriladi².

Uzoq yillardan beri olimlar diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib kelayotgan maqollar folklor, etnografiyaning o‘rganish ob’ekti sifatida tadqiq etildi. Bu borada SH.Rahmatullaev, YA.Pinxasov, G‘.Salomov, Q.Samadov, SH.SHorahmedov,

¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш.Хикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990. 5-б.

² Абдурахмонов Ғ. “Девону луғотит турк”асарининг ўрганилиш тарихидан.// Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 6-сон. 49-б.

X.Abdurahmonov, M.Sadriddinova singari olimlarning xizmatlari katta. O'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik va ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan; xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari adabiy til va dialektlarning leksik doirada o'rganilgan.

Keyinroq o'zbek tilshunosligida xalq maqollari boshqa bir yo'nalishda tadqiq etila boshlandi, ya'ni yozuvchi va shoirlar asarlarining tili va uslubiga oid ko'pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarida xalq maqollarining ma'noviy, uslubiy xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Bu borada A.Rustamov, H.Sulaymon, SH.SHomaqsudov, SH.SHorahmedov H.Berdiyev, R.Rasulov, S.Asqarov, A.Jo'raxonov, M.To'ychiev, M.Hakimov¹larning ishlarini keltirish mumkin.

O'zbek tilshunosligida xalq maqollarining to'laqonli sinonimik lug'atini yaratish kabi muhim vazifa B.Jo'raeva tomonidan uddalandi². Olima tomonidan tuzilgan, tartiblangan paremik birliklar sinonimiyasi asosida yaratilgan mazkur lug'atni ushbu yo'nalishda yaratilajak leksikografik ishlarning debochasi sifatida baholash mumkin.

O'zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi³, ammo bu tushunchani ifodalash uchun o'ndan ortiq atama qo'llanadi: maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusning so'zi, avomunnos masali, hikmatli so'z va hokazo. Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal atamalari deyarli farqlanmaydi. Hatto ba'zi manbalarda paremalarning turlari

¹ Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Т., 1970; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. Т., 1987; Ш.Шоабдурахмонов, Ш.Шорахмедов. Ҳикматнома. Т., 1990; Ҳ.Бердиёров, Р.Расулов. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. Т.: Ўқитувчи, 1984; Жўраёнов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // «Ўзбек тили ва адабиёти». 1974, 4-сон, 52-55-бетлар; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларининг ишлатилиши. -Самарқанд. 1971, 84-87-бетлар; Ҳакимов М. Ёзувчи ва халқ тили. -Тошкент: «Фан», 1971. -176 бет

² Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.

³ Ўзбек халқ мақоллари. –Т., 1981.5-6.

sifatida farqlangan bo‘lishiga qaramay, maqol va matal terminlari izohi chalkashtirib yuborilgan o‘rinlarni ham uchratish mumkin¹.

Mumtoz adabiyotda *maqol* atamasi so‘z, nutq, gap tushunchalarini anglatgan va maqol tushunchasini ifodalash uchun esa *masal* istilohi qo‘llangan². Masalan, mumtoz she‘riyatda maqol qo‘llanayotgan matndagi *masaldurkim*, *masalkim*, *masal budur* kabi birikmalar maqol ma‘nosini anglatib keladi. Gulxaniy o‘zining mashhur “Zarbulmasal” asarida *masal* atamasini maqol ma‘nosida qo‘llaganki, tarixiy jihatdan masal istilohini maqol atamasining ekvivalenti sifatida anglash mumkin.

Tilshunoslikda maqol va matallarni ma‘no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Nutqda axborot berish vositasi maqol bo‘lsa, shu axborotni jonli timsollarda etkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida matal qo‘llanadi. Bu jihatdan matallar iboralarga yaqin turishini unutmash kerak. Matallarda turli xil holatlar obrazli qilib tasvirlanadi va ularning didaktik xususiyati sezilmay qoladi. Maqollarning esa tarbiyaviy jihatlari ko‘zga tashlanadi va aksariyat bunday birliklar maslahat, buyruq va darak mazmunini ifodalashi bilan matallardan farqlanadi. Masalan:

Maqol: “*Yirtiq uyni el topar, YOlg‘on so‘zni chin topar*” yoki “*Maddohning va‘ziga ishonma, G‘olibning – so‘ziga*”.

Matal: “*Uyida chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tandir*”.

Maqollar grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma‘noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir. Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o‘z ma‘nosida – to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi. Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko‘chma ma‘noga ega

¹ Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. -Т. : “Ўқитувчи”, 1984. 12-б.

² Бердақ Юсуф. Мумтоз адабий асарлар луғати. Т., 2010237-б.

ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo'lmay, faqatgina to'g'ri ma'noda qo'llanishida ko'rinadi¹.

Jamiyatda bo'lgani singari tilda ham bir necha birliklar yonma-yon yashar ekan, albatta, ular bir-biriga ta'sirda va o'zaro munosabatda bo'lishi va bu munosabat natijasi o'laroq bir-biriga tomon siljishlar, o'tishlar bo'lgani kabi tilda ham o'zaro yondosh hodisalarning maqollashish jarayonini kuzatish mumkin.

Paremiologik lug'atlarda maqol-matal tipidagi paremalarning komponentlaridan biri(so'z yoki birikma) yoki barchasi (gap, qo'shma gap) o'z ma'nosida ishlatilishi mumkin:

a) maqol tarkibidagi leksik birliklar – so'z, juft so'z, izofiy birikma o'z ma'nosida ishlatiladi:

Begonaning dang'illamma saroyidan

O'zingning kulbai vayronang yaxshi.

b) maqol tarkibidagi sodda gap o'z ma'nosida qo'llanadi:

Qo'shni qo'shnidan erta turishni o'rganar.

v) maqol tarkibidagi qo'shma gap o'z ma'nosida qo'llanadi:

Qizing bo'y etsa, qizi yaxshi bilan qo'shni bo'l,

O'g'ling er etsa, o'g'li yaxshi bilan qo'shni bo'l.

Leksik birliklar maqollarning shakllanishi uchun moddiy asos hisoblanadi. Maqol mazmunini shakllantirishda matn tarkibidagi komponentlardan biri tayanch leksema vazifasini o'taydi. SHuningdek, maqol tarkibidagi boshqa bo'lak bilan sintaktik munosabatning turli xil kombinatsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tilshunoslikda maqol va matallarni ma'no tomonidan chegaralash maqsadga muvofiqdir, chunki ular berilayotgan xabarni ifodalash xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Matal nutqda axborot berish vositasi bo'lsa, maqol shu axborotni jonli timsollarda etkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo'llanadi. Masalan, matal: *“Xavf-xatardan qo'rqqan maqsadga netolmas”*.

Shu ma'noning maqollarda ifodalanishi quyidagichadir:

¹ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.

Chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmas.

O‘g‘ridan qo‘rqan mol yig‘mas.

Uchqundan qo‘rqan temirchi bo‘lmas.

Ilondan qo‘rqan olachilvirdan hatlamas.

Bo‘ridan qo‘rqan to‘qayga kirmas.

CHigirtkadan qo‘rqan ekin ekmas.

Kuchukdan qo‘rqan gado bo‘lmas.

Ayiqdan qo‘rqan o‘rmonga kirmas.

Tulkidan qo‘rqan tovuq boqmas.

Matallarning shakliy ko‘rinishi, asosan, o‘zgarmaydi (grammatik shakllar o‘zgarishi bundan mustasno, albatta):

Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l.

Maqollar grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir.

Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o‘z ma’nosida – to‘g‘ri ma’noda qo‘llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi.

Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning ko‘chma ma’noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo‘lmay, faqatgina to‘g‘ri ma’noda qo‘llanishida ko‘rinadi.

Shunday qilib, ushbu lug‘atga ma’nosi tarkibidagi so‘zlarning asl ma’nosidan kelib chiqmaydigan, balki barchasi birgalikda umumiy ko‘chma ma’no ifodalaydigan idiomalar – maqollargina kiritildi.

Rost, maqol va matal orasida juda katta farq yo‘q va ba’zan buni sezmaymiz ham. Chunki jamiyatda bo‘lgani singari tilda ham bir necha birliklar yonma-yon yashar ekan, albatta, ular bir-biriga ta’sir qiladi, o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat natijasi o‘laroq bir-biriga tomon siljishlar, o‘tishlar bo‘lib turadi. Masalan: “*Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi*” maqoliga e’tiborni qarataylik. Jahonning ko‘pgina xalqlari orasida tarqalgan bu maqol insoniyat yaratgan eng qadimiy maqollardan biri bo‘lib, uni melodiy V asrdayoq lotin adibi

va tilshunosi F.Makrobiy o‘z “Grammatika”sida keltirgan. Maqolning to‘g‘ri ma‘nosi shuki, qarg‘a-quzg‘unlar odamning yo biror hayvonning ochiq erda qolib ketgan murdasini qo‘rib qolsa, avval uning ko‘zini cho‘qib erkanda, keyin go‘shтини eya boshlar ekan. Ammo tirik qarg‘a va quzg‘un o‘lik qarg‘a va quzg‘unning ko‘zini cho‘qimas ekan¹. Demak, bu paytda hikmat o‘z ma‘nosida ishlatilgan bo‘lib, matal sanalgan. Vaqt o‘tishi bilan idiomalashish natijasida maqolga aylangan. Olim B.Soatovning “*ayrim matallar davrlar o‘tishi bilan maqolga aylanadi*”² degan qarashi ham fikrimizga asos bo‘la oladi.

Lekin bu holat maqol va matallarni batamom birlashtirib yuborish yoki ikki terminni juftlab (maqol-matal tipidagi paremlar) qo‘llagan holda ularning xarakterli xususiyatlarini qo‘shib o‘rganish degani emas, aslo. Chunki tilda maqol-matal tipidagi paremlar deb yuritiluvchi birliklarning o‘zi ham alohida holda mavjud bo‘lib, o‘zida maqollik va matallik xususiyatlarini aks ettiradi. Bunday ifodalarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda bir qism so‘zlar o‘z ma‘nosida ishlatilsa, ikkinchi qismi ko‘chma ma‘no ifodalaydi:

Boy boyga boqar, Suv soyga oqar.

Hamsoya hamsoyadan ulgi olar, Qovun qovundan rang.

Maqol turmush tajribalari zaminida tug‘ilgan, xalq donoligini ifodalovchi, qisqa, ko‘pincha she‘riy shakldagi hikmatli so‘zlar, chuqur ma‘noli iboralardan iborat bo‘ladi. U xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shoirona shakllaridan biri. Aforizm esa yozma adabiyot namoyandalari va tarixiy shaxslar tomonidan aytilgan, chuqur ma‘noli, tugal va ixcham hikmatli so‘zlardi. Maqol va aforizmlar bir-biriga juda yaqin janr hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar ularni ba‘zan aralashtirib yuboradilar³. Ular aslida bir narsa emas. Aforizmning maqoldan farqli jihati uning muayyan shaxs tomonidan aytilganligi, aniq muallifining mavjudligidir⁴. Demak, maqol xalq og‘zaki ijodi, aforizm yozma adabiyot

¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. Нега шундай деймиз. – Тошкент. 1988, 321-бет.

² Соатов Б. Мақолларнинг матал ва топишмоқларга муносабати // “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1987, 5-сон, 38-бет.

³ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега бундай деймиз. Т.: Ф.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1988, 11- бет.

⁴ Ҳотамов Н., Саримсоқов Б.. Адабиётшунослик терминлари русча-ўзбекча луғати. Т.: Ўқитувчи, 1983 йил.

namunasi hisoblanadi. Tadqiqotchi Ziyodilla Toshpo‘latov aforizmlarni ikki guruhga bo‘ladi: birinchi guruhga badiiy ijodkorlar, ikkinchisiga esa taniqli faylasuf va olimlar tomonidan aytilgan hikmatlar kiritiladi¹.

Moziydan bizning zamonamizga asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha, ellar va elatlar osha tillar va dillar osha etib kelgan maqol va hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko‘rkam bir badiiy ifodasidir. Ularning har biriga butun-butun kitoblarga tatigulik keng va chuqur ma‘no, his-tuyg‘u joy bo‘lgan. SHu bois xalq asrlar davomida yaratgan, sayqal bergan har bir hikmatni to‘laqonli, etuk bir badiiy asar desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maqol va hikmatlarning o‘z xususiyatlari bor, albatta. Hikmatli so‘zning lug‘avaiy ma‘nosi – o‘ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan chuqur ma‘noli gap, demakdir². Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmunni, so‘z san‘atining duru-javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang *maqollar* nutqimizning ekspressiv (ya‘ni, ta‘sir etuvchi, his-hayajon uyg‘otuvchi) vositalari orasida eng ta‘sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga ega.

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to‘playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so‘zlar ana shunday ma‘naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko‘z qorachig‘iday asrab, avaylab, sayqal berib dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror bir xalq yo‘q.

Yevropaning taniqli sharqshunos olimi Herman Vamberi XIX asrning ikkinchi yarmida o‘lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagilarni yozgan edi: “ ... SHarq qadimdan she‘riyat tuyg‘ulari o‘lkasi bo‘lib kelgan ... SHuning uchun ham o‘tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she‘riyatga bo‘lgan ishtiyoq Parij va Londondagi ma‘lumotli jamiyat a‘zolariga qarganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasa kerak ... O‘rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo‘ygan yosh oshiq-

¹ Тошпўлатов Зиёдулла. Афоризм адабий жанр сифатида. / Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 2004, 2-сон. 54-бет.

² Ш.Шомаксудов ва Ш.Шораҳмедов. Ҳикматнома. Ўзбек энциклопедияси нашриёти. Тошкент. 1990 йил. 7-бет.

ma'shuqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham – xullas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi ... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko'chmanchilarning o'tovida ham eshitish mumkin ... Sahro o'g'loni bunday otalar so'zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday ishontiruvchi so'z uning fikriga ta'sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug'ma mutassiblik xech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto'g'ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsaga bunchalik kuchli tarzda namoyon bo'lmaydi”¹.

Umuman insoniyat yaratgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oddiy axloqiy nomalardan tortib kishilar hayotidagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatlarigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi, tabiat va jamiyat hayotining biror-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin.

Xalqimizning ming yillar davomida to'plagan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan. Ularda ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini his etib turamiz.

Maqollar zamonlar osha tobora sayqallanadi, pishiydi, mazmuni teranlashadi. Ba'zi hollarda esa, buning aksicha, eshituvchi va qayta talaffuz etuvchilarning muayyan maqsadda aytmoqchi bo'lgan ma'noni tushunmasligi, yoxud eshitganini eslay olmay, o'zicha qo'shib-chatib aytishi, yoinki ma'lum bir fikrni ifodalamoq uchun eshitgan maqoli tarkibidagi ayrim so'zlar o'rniga atayin boshqa so'zlar ishlatib, asl ma'nosi va mazmunini boshqa tomonga burib aytishi oqibatida ko'pgina maqollar keyingi avlodlar orasida asliga nisbatan noto'g'ri,

¹ Вамбери Г. Очерки Средней Азии. Москва., 1968. Стр. 323-324

mantiqqa zid tarzda qo'llaniladigan bo'lib qolgan. Bu holni xalqimiz orasida qo'llanilayotgan va yozma adabiyotda, kinofilmlar va teatr tamoshalarida, matbuot, radio va televideniya da ishlayotgan, xatto hikmat durdonalarining ayrim to'plamlariga kiritilgan bir qancha maqollarda ko'rishimi mumkin. Masalan: Ayrim asarlar va maqol to'plamlarida "Hayt" degan tuyaga madad" maqolini "Hoy degan tuyaga madad" yoki "Ha-ha" degan tuyaga madad" tarzida yanglish talqin etilgan o'rinlar ham bor.

Maqollarning xalqimiz o'rtasida hamda turkiy xalqlarda mavjud variantlarini bir-biriga chog'ishtirib, tekstologik o'rganib, eng to'g'ri va to'liq variantlarini topishga muvaffaq bo'linadi. Masalan, *"Yalong'och suvdan toymas"* maqolining ikkinchi komponenti tushib qolganligini aniqlangan. Uning to'liq varianti *"Yechingan suvdan qaytmas, yalang'och suvdan toymas"* shaklida qo'llangan. Aslida *"Usta ko'rgan shogird har maqomga yo'rg'alar"* deyilsa to'g'ri bo'lardi. Aksincha bu maqol *"Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar"* tarzida nutqimizdan o'rin olgan. Bu hikmatning ham to'liq variantini H.Vamberi aniqlaganligi ma'lum: *"Usta ko'rgan shogird har maqomga yo'rg'alar, usta ko'rmagan shogird andin-mundin qarmalar"*. Bu maqolning to'liq varianti hisoblanadi. U yoki bu maqolning ko'chma ma'nosini, unda nima deyilmoqchi bo'layotganligini aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to'g'ri anglamoq kerak. Xalq og'zaki ijodining ko'pgina janrlarida, jumladan, maqollarda jamiyatdagi munosabatlar, holat va hodisalarni soddaroq, oydinroq ifodalamoq maqsadida tabiatdagi o'z xususiyatlari bilan shunga mos keladigan turli narsalar (hayvonlar, o'simliklar, ularning mevalari, jismlar, uy jihozlari, kiyim-kechaklar, ish qurollari, mehnat maxsulotlari va hokozolardan) obrazli ustalik bilan foydalaniladi. Ana shu narsalarning har birini timsol qilib olib, ular vositasida muayyan sifatlarga (xoh ijobiy, xoh salbiy) ega bo'lgan kishilarning obrazini gavdalantiriladi.

Masalan, o'zbek xalqida birgina **"it"** ishtirok etgan yetmishdan ziyod maqol borligi aniqlangan¹. Jumladan: *"It xo'ra bo'lsa – o'g'riga eshik ochiq"* degan

¹ Шомаксудов Ш. "Хикматнома". 163-175-бетлар.

maqol bor. Buning ma'nosi shunday:

Uyni qo'riqlash uchun eshik og'ziga bog'lab qo'yilgan it xo'ra, ochko'z, badnafs bo'lsa, kelgan o'g'ri unga egulik bir nima tashlab, ovora qilib qo'yadida, o'zi bemalol uyga kirib, oladiganini olib, chiqib ketadi. Bu maqolning to'g'ri ma'nosi. Majozan: `Shahar darvozasini qo'riqlash uchun qo'yilgan darvozabon (yoki biror joyning qoravuli) poraxo'ra, sotqin bo'lsa, yov shaharni osonlikcha qo'lga kiritib oladi (yoki o'g'ri, xiyonatkor arzimagan narsani sarflab, o'z niyatiga osonlikcha erishadi). Shuning uchun darvozabon va qoravullikka to'g'ri, halol, sodiq odamlarni tayinlash kerak`, deyilmoqchi. Yuqoridagi maqolga mazmunan yaqin bo'lgan: *"Itning ahmog'i kunduzi huradi"*, degan maqol ham borki, bu bilan: `Ahmoq it kunduzi, ya'ni egasi va boshqa odamlar uyg'oq bo'lganda hurib, xavf-xatardan ogohlantirishning hojati ham bo'lmagan paytlarda huriydi-da, kechasi hamma uxlab yotgan paytda hurimay jim yotadi, o'g'ri-o'truqdan ogohlantirmaydi`, degan ma'noda yalqov, anqov, ovsar darvozabonlar, qoravullar, soqchilardan nafratlanganlar.

O'zbek tilida ilon so'zi ishtirokida yasalgan o'ndan dan ortiq maqollar bor. Jumladan: *"Ilonning boshi yanchilsa ham, quyrug'i qimirlaydi"* degan naql bor. Uning yana quyidagi variantlarini ko'rsatib o'tish mumkin: *"Ilonni uch kesganda qimirlatgulik holi bor"*; *"Yaralangan ilondan hazar qil"*, *"O'lik ari ham nayzasida zahar saqlaydi"*, *"Ilon o'lsa ham zahri tishida qoladi"*, *"Ilon po'stini tashlasa ham - ilon"*. Bu bilan majozan: `Dushman har xil qiyofaga kirsa ham, o'zini har xil rangga bo'yab ko'rsatsa ham, baribir dushmanligini qiladi`, deyilmoqchi. Bu maqollar bilan: `Dushmanni engdim, unga zarba berdim, deb bamaylixotir yurma, undan hamisha ko'z-quloq bo'lib turgin, xushyorlik va ehtiyotkorlikni qo'ldan berma!` degan ma'noda nasihat qiladilar.

"Ilondan – ilon, chayondan - chayon" degan maqol bor. Bu maqol `Yomonlik yomonlardan yomonlarga yuqadi, xatto nasldan naslga o'tadi`, degan ma'noda qo'llanadi. Tilimizda bu maqolning ko'plab variantlari uchraydi.

I.2. Maqollarning morfologik sintaktik va semantik xususiyatlari

Maqollarda morfologik jihatdan asosan ot, sifat, son va fe'l leksemalar tayanch leksema sifatida tanlanadi. Albatta, bular orasida ot leksemalar maqolning semantik tuzilishida etakchilik qiladi. Chunki fikrni ixcham ifodalash maqsadida ot leksemalarning imkoniyati boshqa turkum leksemalar imkoniyatidan ancha ortiq. Asosan, shaxs otlari va somatik a'zolar, o'simlik va uning muchalari nomi, hayvon va uning a'zolari, maishiy-ro'zg'or buyumlari, shuningdek, anemonimlar, kosmonimlar va abstrakt tushunchali otlar maqollar strukturasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Maqollarda sifat turkumiga xos rang, hajm-o'lchov, xarakter –xususiyat, jismoniy nuqsonni ifodalovchi oq, qora, ola, qizil, sariq, ko'k; keng, tor, uzoq, yaqin, olis, engil, og'ir; aqlli, dono, ahmoq, nodon, epchil, chaqqon, chiroyli, xunuk, do'st, dushman, xom, semiz, oriq, baxil, saxiy, bemor, kasal, sog'; kar, ko'r, kal, soqov kabi leksik birliklar qo'llangan. Masalan: *Kal o'zini ovutar, Qo'ltig'ini sovutar.*

Maqollar tarkibida eng ko'p qo'llangan fe'llar sifatida quyidagi so'zlarni ko'rsatish mumkin: *emoq, kelmoq, qaramoq, yo'rg'alamoq, yurmoq, o'tirmoq, bermoq, olmoq, tortmoq, ko'rinmoq, ko'rmoq(harakat fe'llari); o'ylamoq, bilmoq, bilmoq, o'rganmoq (tafakkur fe'llari); yig'lamoq, sasimoq, yog'moq, o'lmoq(holat fe'llari); so'ylamoq, so'ramoq, maqtamoq, demoq, o'qimoq(nutq fe'llari); bosmoq, ekmoq, sug'ormoq, o'rmoq, tutmoq, eshitmoq, ayamoq,saqlamoq, siylamoq, yuvmoq, cho'zmoq, o'lchamoq, yashamoq (mashg'ullik fe'llari).*

Maqollarda son, olmosh, ravishlarning qo'llanishi ancha cheklangan. Maqollarda asosan *bir, ikki, uch, etti, sakkiz, o'n, qo'sh, yarim, yorti, olti, oltmish yuz, qirq, sakson, to'qson, ming, tuman, botmon* kabi sonlarni; *u, bu, shu, o'sha,men, sen, biz, siz, o'z, har, har kim, birov, kim, nima, qaysi olmoshlarini; oz, ko'p, picha, sal, talay, tez, sekin, bugun, erta, kunda, oldin, keyin, avval, so'ng* ravishlarini mazkur turkumlarga oid leksemalar ichida faol deb belgilash mumkin.

Maqollarning morfologik xususiyati, shuningdek, semantik strukturasiga ko'ra asosan ot leksemalar tayanch komponent bo'ladi. Maqollarda shaxs otlari

boshqa nomlarga nisbatan etakchilik qiladi, ayniqsa, qavm-qarindoshlik otlari bu borada faol. Masalan:

Onadan ko'rgan to'n bichar,
Otadan ko'rgan o'q yo'nar.
Otasi tentakning birisi – tentak,
Onasi tentakning barisi – tentak.
Bola– loy, ona – kulol.
Odobli o'g'il – ko'kdagi yulduz,
Odobli qiz – yoqadagi qunduz.

Ko'p hollarda ot leksemalar majoziy xarakterda qo'llanadi. Ana shunday maqollarda chorva hayvonlari nomlari va it leksemasi ishtiroki kuzatiladi:

Ho'kizning o'tini eb,
Qo'yning qilig'ini qilma;
Ot oyligin o'ylar, tuya – yilligin;
Itining fe'li egasiga ma'lum.

Ayrim xalq maqollari qiyos, chog'ishtirish munosabatini ifodalaganda, qo'shma gap ko'rinishida shakllangan maqolning birinchi komponenti tarkibida shaxs otlari ishtirok etadi, ikkinchi qismida esa hayvon nomlari qatnashadi:

Odam bo'lar yigit odatidan ma'lum,
Tulpor bo'lar qulun – muchasidan.
Ot kuchinni karvonda ko'r,
Mard kuchini maydonda.

Ko'rinib turibdiki, qiyos uchun tanlangan shaxs va hayvon nomlarining qo'shma gap komponentlarida o'rinishuvi qat'iy emas. Chunki qiyoslanayotgan mazmun yoki tushunchalar teng qiymatli bo'lib, ularning qay biri dastlabki gapni shakllantirishi unchalik muhim emas.

Qiyos mazmunidagi maqollarda nafaqat hayvon nomlari, balki o'simlik nomlari ham shaxs otlari uchun qiyos ekvivalenti sifatida tanlanishi mumkin:

Terakka qarab, tol o'sar.

Onaga qarab qiz o'sar.

Suv bilan ekin o'sar,

Tarbiya bilan– odam.

Sifat leksemalar shaxs, hayvon, o'simlik, holat belgisi sifatida ot leksemaning ma'nosini konkretlashtirib keladi: *zo'r, qimmat, bilimli, bilimsiz, yaxshi, yomon, to'g'ri, olim, zolim, mehnatsiz, ilmsiz, ilmli, bedov, kuchli, tekin, bop, tikansiz, mashaqqatsiz, ulug', olchi, yalangoyoq, quruq, jafoli, vafoli, xor, hunarli, do'st, dushman*. Sifat ishtirokidagi sintaktik qurilmalarda atributiv munosabat shakllanadi, sifatlar ish-harakatning belgisini ifodalaganda esa relyativ munosabat yuzaga keladi. Son leksemlar ot–kesimli maqollar tarkibida uchraydi. Bunda bir soni etakchilik qiladi. Bu sonning polisemantik xususiyatiga bog'liq bo'lib qoladi. Bir va ikki leksemalari qiyos mazmunidagi maqollarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bir soni qo'llangan maqollarda *uch, etti, qirq, yuz, ming, tuman* sonlari qo'llanishi ham kuzatiladi. Ayrim maqollar komponenti faqat son so'z turkumidan tanlangan misollar ham bor. Bunda konversiya hodisasini kuzatish mumkin: *Birniki – mingga, mingniki – tumanga*. Maqollarda bir sonining polisemantik xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Maqolda ot va sifat aniqlovchi-aniqlanmish sintagmatik munosabatiga kirishadi. Sifat ishtirokida tuzilgan maqollarda xarakter-xususiyat va jismoniy nuqson belgilari tayanch leksemalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyat aksariyat konversiya evaziga yuzaga keladi. Masalan:

Kalning nimasi bor – temir tarog'i,

Ko'rning nimasi bor – eski tayog'i.

Mazkur maqolning tuzilishi o'ziga xos. Maqol strukturasi ko'ra dialog ko'rinishida shakllangan, faqat bu o'rinda so'zlovchi ham, tinglovchi ham bitta shaxs, ya'ni umumshaxs ma'nosi ifodalanadi.

Maqollarda ham gapning grammatik asosini fe'l so'z turkumi tashkil qiladi. Bunda fe'l valentliklari gapni sintaktik jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi. Maqollarda fe'llar asosan kesim vazifasiga xoslangan bo'ladi. Otlashgan sifatdosh

va harakat nomi formalari fe'lni boshqa so'z turkumlarining sintaktik vazifasiga moslaydi. Fe'lning ravishdosh formalari esa juda ozchilikni tashkil etadi.

Maqollar xalqning so'z boyligi sifatida adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha o'rganish uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida xalq maqollari semantik jihatdan etarlicha tadqiq etilmagan. Bitiruv malakaviy ishida maqollarning semantik xususiyatlarini maqol matnidagi etakchi komponent bo'lgan leksik birliklar arxisemalari asosida semantik guruhlariga ajratish, maqollarning ma'noviy va shakliy xususiyatlarini aniqlash, ularni qoliplash, xalq maqollari semantikasida ko'chimlarning o'rne, konnotativ ma'noning ifoda usullari, qolaversa, badiiy matnda maqollarning uslubiy imkoniyatlarini tadqiq etish orqali yoritib berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yildi.

Maqollar tilning ko'rki hisoblanadi. Ulardagi ixcham hajm va ma'no xalq ma'naviyati, zakovati mahsulidir. Maqollardan nutqda foydalanish mazmunni boyitishga, ta'sirchanlikni oshirishga va shuning barobarida tilning ko'rkamligini namoyon etishga olib keladi, nutqning xalq tiliga yaqin bo'lishini ta'minlaydi.

Maqol matni qisqa, ixcham va lo'nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois ijodkorga qo'l keladi. Maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to'g'riligi isbotlangan holda, qayta-qayta ishlanib vujudga keladi¹.

Maqolda har qancha qisqalikka erishilmasin, baribir mazmunni to'liq ifodalash uchun qo'shma gap formalari sodda gap shakliga nisbatan etakchilik qiladi. SHunday bo'lsa-da, qo'shma gap qismlarini ham ixchamlashtirish zarurati ikkinchi gap komponentini to'ltqsiz holda ifoda etishni yoki gap bo'laklarini izohlovchi – izohlanmish ko'rinishidagi markaziy gap bo'laklari ko'rinishida shakllantirish, mazmunni qisqa va

¹ Курбонова С. Хамид Олимжон шеърларида халқ мақолларидан фойдаланиш // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. -Фарғона. 2010. 137-б.

loʻnda shaklda ifoda etishni talab qiladi. Masalan, quyidagi maqollarda ikkinchi komponent toʻliqsiz gap holida qoʻllanadi:

Nomarddan najot kutma,

Itidan – hojat.

Mard bir marta oʻlar,

Qoʻrqqoq yuz marta.

YOmonning doʻsti koʻp,

Piyozning – poʻsti.

Massining poshnasi boʻlmas,

Nojinsning – oshnasi.

Bunday maqollarning oʻziga xos xususiyati shundaki, ular tarkibida qoʻllanayotgan notoʻliq komponent baʼzan gap boshida ham joylashishi mumkin. Bunday hollarda qoʻshma gap komponentlari birdan ortiq boʻlishi kuzatiladi:

Mard – kurashda, doʻst – tashvishda,

Dono gʻazabda bilinar.

Qoʻshma gapdan tashkil topgan maqollarda ixchamlikning yana bir shakli, gap komponentlarining izohlovchi – izohlanmish munosabatli shaklidir. *Mard qalbi – gul, Nomardniki – kul.* Mazkur maqolda ham toʻliqsizlik, ham izohlash konstruksiyasi orqali maqol shakliy jihatdan ixcham, mazmunan loʻnda ifoda topgan.

Maqollar qoʻshma gapdan tashkil topar ekan, aksariyat ularning talaffuzi, oʻqilishi ravon boʻlishida qofiyaning oʻrni muhim. Masalan, *Ona qilsa zoʻrlikni, Bola tortar xoʻrlikni; Taqir erdan **chang** chiqarma, Yoʻq erdan **jang** chiqarma.*

Biroq xalq maqollarida qofiya masalasi hamma vaqt ham toʻgʻri hal qilingan emas. Buni faqat birgina omil bilan izohlash mumkin, yaʼni xalq tafakkuri soʻzning fonetik jihatdan muvofiqligini emas, balki matn mazmuniga daxldor va muvofiq keluvchi shaklini tanlagan. Maqollar aksariyat ikki komponentli qoʻshma gaplardan tuzilgani uchun ularning

qofiya strukturasidagi g'alizliklar ko'p ham ko'zga tashlanavermaydi. Masalan:

*Nomard yovga **yalinar**,*

*Mard kuchiga **suyanar**.*

*Nolish bilan ish **bitmas**,*

*Mard nomardga tiz **cho'kmas**.*

*O'tning yomoni – **ola**,*

*Xotinning yomoni – **balo**.*

*SHaharning qal'asi – **qo'rg'on**,*

*Odamning yomoni – gap **urgan**.*

*Og'ir yukni **nor** ko'tarar,*

*El og'irin **er** ko'tarar.*

Qofiyalanuvchi leksik birliklarning fonetik strukturasini sintaktik parallel bo'lgan maqollarda to'liq muvofiq keladi: *Og'izga kelgan **so'z** arzon, Ovulga kelgan **bo'z** arzon; So'zning onasi – **quloq**, Suvning onasi – **buloq***

Maqol - matal tipidagi paremalarni to'plash, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik fanlarining muammolari tarkibiga kiradi. Adabiyotshunoslar o'zbek tilidagi maqol-matallarni faqat tematik jihatdangina tasniflaydilar. Masalan, "O'zbek xalq maqollari" to'plamida 1800 ta maqol-matal 31ta mavzuiy guruhga ajratilib klassifikatsiya qilingan. Ularni R.Jumaniyozov 22ta, A.Xolmuhamedov esa 56ta tematik guruhga ajratadi¹. Aytish mumkinki, maqol-matallarni tematik jihatdan tasniflashda ma'lum bir qonuniyat yo'q, shuning uchun ularni ko'plab temalarga ajratib o'rganish mumkin. Bundan tashqari, maqollarni badiiy tasvir vositalariga ko'ra ham guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni qofiyasiga, o'xshatish(metafora), taqqoslash (antiteza), parallelizm, anafora, kinoya, piching, kesatichni ifodalashiga ko'ra ham turlarga jaratish mumkin.

¹ Ўзбек халқ мақоллари. Т., 1965; Жуманиёзов Р. Сўз кўрки мақол. Т., 1964; Халмухамедов А. Жемчужины мысли народной. Т., 1972.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan ham maqol-matal tipidagi paremlar bir necha xil tasnif qilinadi:

- a) strukturasiga ko'ra;
- b) semantik xususiyatiga ko'ra.

Strukturasiga ko'ra maqollar ikki turga bo'linadi: s o d d a va m u r a k k a b.

Sodda maqol-matallar birgina predikativ munosabatni ifodalaydi. Ular gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra ham ikki elementlidan etti elementligacha bo'lishi mumkin¹. Demak, sodda hikmatlar tuzilishi jihatidan eng kamida ikki elementdan (gap bo'lagidan)tuzilgan bo'ladi va tugallangan fikr ifodalaydi. Har bir maqolda ikkita gap bo'lagi bo'lishi va ular ikki intonatsion markazga bo'linishi shart. Masalan, *Tegirmon navbati bilan* paremasida kesim ifodalanmagan bo'lishiga qaramay, egadan keyin pauza qilinib, shu so'zning oxirgi bo'g'ini cho'ziqroq talaffuz qilinadi, keyingi bo'lak – hol alohida intonatsiya – kesim (predikativ) intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi. Maqol-matallarda ega sostavi ishtirok etmaganda ham, yuqoridagi kabi intonatsion bo'linish kuzatiladi: *Bo'lmaganga / bo'lishma* yoki *Suymaganga / suykanma* kabi.

Demak, maqol-matal tipidagi paremani eng kami ikki mantiqiy markaz hosil qiladi. Bu mantiqiy markazni tashkil etuvchi so'zlar bosh bo'lak vazifasida kelishi ham, kelmasligi ham mumkin: *Bolalik – podsholik. Pokliging – sog'liging. Oltin zanglamas* kabi maqol-matalllar ega–kesimdan tashkil topgan bo'lsa, *Sanamay sakkiz dema. Tanimasni siylamas* kabi birliklar esa kesim sostavidan iborat bo'lsa-da, ikkita mantiqiy markazga ega. Sodda maqol-matallarni nechta gap bo'lagidan tashkillanganligiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- a) ikki bo'lakli: *Davlatig – ota –onang;*
- b) uch bo'lakli: *So'raganning aybi yo'q;*

¹ Бердиев Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси. Т. : “Ўқитувчи”, 1984. 15-б.

v) to‘rt bo‘lakli: *Elidan ayrilganni ayiq er*;

g) besh bo‘lakli: *Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi*;

d) olti bo‘lakli: *Qorni to‘qning qorni ochdan xabari yo‘q*;

e) etti va undan ortiq bo‘lakli: *Birovning mis qozonidan o‘zingnig qora qozoning yaxshi. Past ko‘chadan topilgan do‘stdan rost ko‘chadan topilgan dushman yaxshi*;

Murakkab maqollar ikki va undan ortiq komponentdan tuzilgan bo‘ladi. Bunday maqollar qo‘shma gap xarakterida bo‘ladi. Murakkab maqol va matallar ikki va to‘rt qismli bo‘ladi. Undan ortiqlari juda kam uchraydi. Murakkab maqollarni qismlari miqdoriga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

a) ikki qismli: *YOv qochsa(1), botir ko‘payar(2)*;

b) uch qismli: *O‘roqda yo‘q(1), mashoqda yo‘q(2), xirmonda hozir(3)*;

v) to‘rt qismli: *Elga bersang oshingni(1), erlar silar boshingni(2), itga bersang oshingni(3), itlar g‘ajir boshingni(4)*;

g) besh qismli: *Bog‘ni boqsang(1), bog‘ bo‘ladi(2), botmon-dahsar yog‘ bo‘ladi(3), boqimsiz bog‘ tog‘ bo‘ladi(4), yurak-bag‘ring dog‘ bo‘ladi(5)*;

d) olti qismli: *Tog‘ni baland dema(1), talab qilsang(2), chiqasan(3), yovni kuchli dema(4), g‘ayrat qilsang(5), yiqasan(6)*.

Maqollarni semantik xususiyatiga ko‘ra tasnif etishda ulardagi ma‘noning qanday ifodalanishi – ko‘chma ma‘noga ega bo‘lish-bo‘lmasligi asos qilib olinadi. Bu xususiyatiga ko‘ra maqollarni uch guruhga bo‘lish mumkin: a) faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan maqol-matallar (*Sichqon sig‘mas ininga, g‘alvir bog‘lr dumiga*); b) ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan maqollar (*Arg‘amchiga qil quvvat, Ignachining ming urgani, temirchining bir urgani*), v) faqat o‘z ma‘nosida qo‘llanadigan maqollar (*So‘raganning aybi yo‘q, Aql bozorda sotilmas*).

Faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llanadigan maqollar sintaktik jihatdan gap bo‘laklariga ajratib tahlil qilinmaydi. Agar gap bo‘laklariga ajratilsa,

ularning ko‘chma ma’nosi yo‘qolib oddiy garga – erkin birikmaga aylanib qoladi, natijada “bir qaynovi ichida” gaplar hosil bo‘ladi.

Ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan maqol va matallar o‘z ma’nosida qo‘llanganda, oddiy gaplardek – erkin birikmalardek tahlil qilinadi, lekin ko‘chma ma’noda qo‘llanganda, gap bo‘laklariga ajratilmaydi.

Uchinchi tip maqollar esa grammatik jihatdan erkin birikmalardan umuman farq qilmaydi va bemaolol komponentlarini tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

Ayrim nashrlarda ko‘chma ma’noga asoslangan maqollar alohida tematik guruh sifatida qayd etilgan. Masalan, *Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim; Bemaza qovunning urug‘i ko‘p; It itga buyuradi, it quyrug‘iga; Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi; Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi; Tilab olgan bolamni echki tepib o‘ldirdi; Qush tilini qush bilar kabi* maqollar majoziy xarakterda ekanligi ko‘rinib turibdi. SHunday bo‘lsa-da, o‘rganilgan manbalarda maqollarning semantik xususiyatlari chalkashtirilgan va guruhlariga noo‘rin kiritilgan misollar ham talaygina.

I.3. Maqollarning mavzuiy guruhlari

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she’riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo‘lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me’yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o‘z in’ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo‘qki, u maqollarda o‘z aksini topmagan bo‘lsin.

Maqollarni to‘plab, nashr ettirganlarning har biri ularni o‘zicha tasnif qilgan. Natijada, tasnifning bir necha turi vujudga kelgan. Bu turlarning asosiylari quyidagilar:

- a) alifbo tartibi;
- b) maqoldagi asosiy soʻzga qarab tasnif etish tartibi (leksik yoki qomusiy tasnif);
- v) monografik tasnif;
- g) genetik tasnif;
- d) tematik tasnif va h.

V.I.Dal: “Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi”, -deb yozgan edi. Demak, maqollarni tasniflash uchun ulardan anglashilgan tushunchalar asos qilib olinsa, tasnifga toʻgʻri yondashilgan boʻladi.

Maqollarni semantik jihatdan `shaxs`, `hayvon` va `oʻsimlik` tushunchalari bilan bogʻlash mumkin. Va koʻrinib turibdiki, ularning barchasi ham mohiyatan `shaxs` tushunchasiga ega. Xalq maqollarining katta qismini vatanparvarlik ruhidagi maqollar tashkil etadi. Mazkur maqollar mazmunini ochishda kalit soʻz sifatida *vatan, yurt, ona yurt, tugʻilgan joy, el, xalq, oʻz ayvoning* kabi leksik birliklar qoʻllanadi va matnni shakllantiruvchi boshqa soʻzlar ana shu markaziy soʻz atrofida birikib maqol mazmunini ochishga yordam beradi. Misollar: *Bulbul chamanni sevar, odam – vatanin, Vatanning vayronasi – umrning gʻamxonasi, Eridan ayrilgan etti yil yigʻlar, elidan ayrilgan oʻlguncha yigʻlar, Oʻzga yurtda shoh boʻlguncha, oʻz yurtida gado boʻl, Ona yurtida omon boʻlsa, rangi roʻying somon boʻlmas, Oʻzganing toqu ravoqidan, oʻzingning ayvoning yaxshi.*

Mehnat va mehnatsevarlik tushunchalarini targʻib etuvchi maqollarda esa leksik mundarija bir oz oʻzgaradi. Bunday mazmunda shakllangan hikmatlarda yuqoridagi kabi ot leksemalar emas, balki feʼl leksemalar etakchilik qiladi. Masalan, *qazmoq, ekmoq, harakat qilmoq, ishlamoq, bermok, olmoq, ekmoq, oʻrmoq, sochmoq, kesmoq, boqmoq, haydamoq, shudgor qilmoq, takror qilmoq, toʻydirmoq, qazimoq, jondan kechmoq, ishlamoq, bilmoq, tishlamoq, qoʻrqmoq, rohat koʻrmoq, toblanmoq,*

bilinmoq, engmoq, ter to'kmoq, qimirlamoq kabi fe'llar mehnatni ulug'lovchi maqollarning asosiy lug'at sostavini tashkil etadi. Mehnat tushunchali maqollarda qo'shma gap komponentlari **qiyos** (*Mehnat qilib topganing, qandu asal totganing; Olib qochguncha, sochib qoch*), **shart** (*Ter to'kib sochsang urug', er seni qo'ymas quruq; Ekinni erta ekkan, hosilin erta o'rar; Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar*), **o'xshatish** (*Er – xazina, suv – oltin*), **zidlash** (*Bo'y ishlamas, qo'l ishlar*) munosabatlarini ifodalaydi. Maqollarda shart va qiyos mazmuni etakchilik qiladi, shuningdek, qisqargan o'xshatishlar, qismlaridan biri to'liqsiz shakllangan qo'shma gap tiplarini uchratish mumkin.

Ilm va hunar, kasb-kor haqidagi maqollarni tashkil etuvchi otlar va fe'llarning ma'noviy guruhleri ham o'zgaradi. Bunday tipdagi maqollarda qo'llangan fe'llar ko'proq ob'ekt valentliklarga ega bo'ladi, shuningdek, miqdor tushunchasini ifodalovchi so'zlar, xususiyat bildiruvchi sifatlar matnni shakllantirishda muhim o'rin tutadi, otlashgan sifatlar va sifatdoshlar ishtiroki kuzatiladi.

Ilm-hunar mavzusidagi maqollarda fe'l va ot so'z turkumi miqdor jihatdan katta guruhni tashkil etadi. Inson xarakterini ifodalovchi sifatlar keyingi o'rinni egallaydi. Miqdor bildiruvchi son va ravish turkumi o'z salmog'iga ega. Faqatgina o'zlik olmoshi ta'kidlash yoki shaxs tushunchasini ifodalash uchun qo'llangan. Modal, yuklama, ko'makchilar esa sanoqli qatnashadi.

O'zbek xalq maqollari ichida milliy qadriyatlarimizni ifoda etuvchi oila va qarindosh - urug' haqidagi maqollar ham talaygina. *Bolaginamning bolasi qandak o'rikning donasi; Boqmasang, moling ketar, xo'rlasang, xotining ketar; Bo'z yaktak qichitar, yaxshi xotin tinchitar; Kundoshlik – ko'ngil g'ashlik; Kundoshlikka kun tug'mas, tug'sa ham butun tug'mas; Oltin-kumushning eskisi bo'lmas, ota-onaning bahosi bo'lmas; Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut; YAxshi erga bersang qizni, silay-silay sulton qilur, yomon erga bersang qizni, ura-ura ulton qilur.*

Bunday tipdagi maqollarda qavm-qarindoshlik tushunchalarini ifodalovchi shaxs va uning yaqinlarini anglatuvchi otlar muhim o‘rin tutadi.

Tozalik va sog‘lik haqidagi maqollarning lug‘at sostavini asosan tibbiy tushunchalarni ifodalovchi ot leksemalar va xususiyat bildiruvchi sifatlar tashkil etadi. Bunda leksemalarning atributiv munosabatlari etakchilik qiladi. Maqollarda gap komponentlari o‘zaro ziddlik (*Kasalni mayiz emas, achchiq dori tuzatadi* – / rus. *Bolezn vylechivayut ne sladostyu, a gorkim snadobem*; *Kasal kasal emas, kasalni boqqan kasal*), qiyos (*Kasalga so‘z yoqmas, charchaganga o‘yin*), to‘siqsizlik (*Kasalga davo topilsa ham, anqovga davo topilmas*; *Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi*) munosabatiga kirishadi. Kasal leksemasi konversiyaga uchrab, *tuzatmoq, yashirmoq, ketmoq, boqmoq, yoqmoq, davo topmoq* kabi fe‘l valentliklarining aktantiga aylanadi.

Sog‘lik haqidagi ba‘zi maqollar tarkibidagi leksemalar eskilik belgisiga ega bo‘ladi. Masalan, *CHiyki et et keltirar, chiyki xamir dard keltirar*. CHiyki – **xom** demakdir. Bu xalqning tibbiy maslahat beruvchi maqollaridan bo‘lib, quyidagi varianti ham bor: “*Pishmagan etni egali bo‘lmas, qaynamagan choyni – ichgali*”.

Odob va tarbiya haqidagi maqollar didaktik xarakterda bo‘lib, pand-nasihat mazmunida shakllangan bo‘ladi. Bunday paremalarda **antiteza** (*Kichiklarning kattasi bo‘lguncha, kattalarning kichigi bo‘l*), **parallellar** (*Buyursa – bola, buyurmasa – balo*; *Rahmat olgan omondir, la‘nat olgan yomondir*; *CHaqirmasa – boruv yo‘q, chaqirilsa – qoluv yo‘q*) kabi sintaktik figuralar etakchilik qiladi. Bu tipdagi maqollar qo‘shma gaplar qolipida shakllangan bo‘ladi.

Insoniy fazilatlarni ulug‘lovchi va inson tabiatiga xos qusurlarni qoralovchi bobolar hikmati o‘zbek xalq maqollarining katta qismini tashkil etadi va ular “*maqto‘v*” yoki “*tanqid*” semantikasini namoyon etadi. Ular do‘stlik va noahillik: *Do‘sting uchun zahar yut*; *O‘tni kavlasang, o‘char, qo‘shnini kavlasang, ko‘char*; donolik va nodonlik: *Aql yoshda emas,*

boshda; *Nodonga so‘zlagan, esiz so‘zim, o‘likka yig‘lagan esiz ko‘zim*; mardlik va nomardlik: *Nomardning xotini bo‘lguncha, mardning bevasi bo‘lgan yaxshi*; *Mard maydonda bilinar*; botirlik va qo‘rqoqlik: *Botir o‘lsa, nomi qolar, nomard o‘lsa, nimasi qolar*; hushyorlik va ehtiyotkorlik: *Itni qopmas deb bo‘lmas, otni tepmas deb bo‘lmas*; *Sinamagan otning sirtidan o‘tma*; *Sir biluvchi bo‘l, sir aytuvchi bo‘lma*; muhabbat, vafo va vafosizlik: *Muhabbat chiroy tanlamas*; *Bildingki bevafodur, ko‘ngul qo‘ymoq xatodur*; kattalarga hurmat va izzat, qadr-qimmat: *YOsh kelsa– ishga, qari kelsa – oshga*; *Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l*; *Qadr bilmas qarindoshdan, qadr bilgan yot yaxshi*; mehmon va mehmondo‘stlik: *Mehmon kelar eshikdan rizqi kelar teshikdan*; to‘g‘rilik va egrilik: *Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri so‘zla*; *Egrining soyasi ham egri*; tadbirlilik va epsizlik: *Qalovini topsang, qor yonar*; *Ot kimniki? Minganniki, To‘n kimniki? Kiyganniki*; iqtisod va tejamkorlik: *Borida – chora-chora, yo‘g‘ida –banda bechora*; *Saqlasang – ming kunlik, saqlamasang – bir kunlik*; *Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar*; qanoat va sabr: *Toqatlga tog‘lar egar boshini, toqatsizning birovlar er oshini*; ishonch va umidsizlik: *Umidli – dunyo, noumid – shayton*; maqtancholik va manmanlik: *Maqtanganning uyiga bor, kerilganning to‘yiga bor*; *Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma*; yolg‘onchilik va ayyorlik, tekinxo‘rlik: *YOlg‘onchi yolchimas, o‘g‘ri boyimas*; *Ish vaqtida – ayyor, osh vaqtida – tayyor*; baxillik va ochko‘zlik: *Bermasning oshi pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas*; *Nafsi yomon hayitda o‘lar*; *Birovga bersam – esiz oshim, uyda tursa – sasir oshim*.

O‘zbek xalq maqollarining ba’zilarida insonning iqtisodiy holati ham o‘z ifodasini topgan. “Kambag‘allik ayb emas” kabi hikmatlar ana shunday mazmundagi maqollar sirasiga kiradi. Bunday hikmatlarning aksariyati tarixiydir. Masalan: *Bo‘zchi belboqqa yolchimas, kulol – mo‘ndiga*; *Och uyda qatiq ivimas*; *Eski choponni it qopar*; *Kambag‘alning bir to‘ygani – chala boyigani*. Bunday maqollarda **“qashshoqlik”, “nochorlik”, “ochlik”**,

“*yolg‘izlik*” va “*etimlik*” semalari leksemalarning etakchi semasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Holvani hakim er, kaltakni etim; SHariatda sharm yo‘q; Domla-imom och qolsa, bozor kezadi, so‘fi och qolsa, mozor kezadi; Qiyshiq arava yo‘l buzar, qozi, mulla el buzar; Eshonim deb eshagimdan ayrildim kabi maqollar esa diniy asosga ega.

Maqollar guruhida urf-odat va marosim bilan bog‘liq maqollar juda ham oz. Bunday maqollar asosan to‘y va aza marosimlari bilan bog‘lanadi va ular semantik jihatdan farqlanadi. Masalan, *To‘yga borsang to‘yib bor, to‘rqa to‘ning kiyib bor*(1); *To‘ying bo‘lsa, tomoshago‘y topilar*(2); *To‘ydan oldin nog‘ora qoqma*(3), *To‘yning boshi boshlanguncha*(4); *Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r*(5); *Kuyovni payg‘ambarlar siylabdi*(6); *Kimga to‘y – kimga aza*(7); *Azaga borgan xotin o‘z dardini aytib yig‘laydi*(8).

Hayvon nomlari ishtirokida tuzilgan maqollar hikmatlar xazinasining juda katta qismini tashkil etadi. Buni xalqimizning fikrini oshkora ifodalamay, ishora-yu ramzlar vositasida etkazish, o‘zgalar ko‘nglini ehtiyotlash kabi ulug‘ samimiyati bilan izohlash mumkin. Ayni shunday ifoda imkoniyatiga maqollar vositasida erishish mumkinligini dono xalqimiz juda yaxshi bilgan. SHundan bo‘lsa kerak, zoonimlar leksemalar markaziy element sifatida yaratilgan maqollar emotsional-ekspressiv xususiyatlarni namoyon etadi. Mazkur strukturadagi maqollar bir qator semantik xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan ayrimlari ko‘chma ma’noga asoslanadi, ya’ni “shaxsga xos” semasi reallashadi, ayrimlarida esa “hayvon” semasi saqlanadi. Qiyoslaymiz: *Boq otingni arpa bilan, boqar qazi qarta bilan, YOli quyuq eshakdan yag‘ir bo‘lgan ot yaxshi, It hurisa, bulbul to‘xtaydi.* Mazkur maqollar mazmuni zoonimik leksemaning konnotativ ma’nosiga emas, balki denotativ ma’nosiga asoslangan. *Itning duosi qabul bo‘lganda – osmondan suyak yog‘ar edi* maqoli esa majozan: “YOmon, niyati buzuk odamning gapi, tilagi zoe ketadi. Uning gapini hech kim inobatga

olmaydi”¹, degan ma’noda qo’llanadi. Maqolning ko’chma ma’noda qo’llanganligini “duosi qabul bo’lmoq” sintagmasi orqali ko’rishimiz mumkin. Chunki “duo qilish”, “niyat qilish” “*shaxs*” *mikromaydoni*²ni tashkil etuvchi leksemalar sirasiga kiradi. YUzaki qaraganda maqolda insonga xos nutqiy va ruhiy holat itga ko’chirilgandek tuyuladi, aslida esa matnda istiora qo’llangan bo’lib, o’xshatilayotgan ob’ekt – “odam” leksemasi kontekstda ifodalanmagan, uning ma’nosi “it” so’ziga yuklangan: natijada metaforik ko’chim paydo bo’lgan.

“Hayvon” arxisemasi ishtirokidagi xalq maqollarida shakliy parallelizm vositasida qiyos – taqqoslash munosabati ham ifodalanishi mumkin va bunday qolipdagi maqollar mazmunan ko’chma ma’noga asoslanmagan bo’ladi: *Itning jini – devona, kelinning jini – qaynona*. Itlar ko’chada tentirab yurgan, beozor va beparvo, ust-boshi juldur devonani ko’rgach, uni o’ziga raqib deb o’ylab, tinmay akillaydi va bunga javoban devona hech bir qarshilik ko’rsatmaydi. Jin so’zi matnda “dushman”, “raqib” semalari bilan qaynona leksemasiga xos “tergash” semasi bilan bog’lanadi. It so’zidagi “tinimsiz akillash” semasi va qaynona leksemasidagi “huda-behuda tergash” semalari mantiqan qiyoslanadi.

Xalqimizda it leksemasi ishtirokidagi maqollar juda ko’p va bu insonning turmushdagi doimiy hamrohi sanalgan ushbu xonaki hayvonga xos fe’l-atvor va xarakter egasi tomonidan yaxshi o’rganilganligidan bo’lsa kerak. *It it bilan quda bo’lsa, o’rtaga suyak qo’yadi; It itligini qilmay qo’ymaydi; It itning o’rtog’i bit*. Mazkur maqollarning har uchasi ham majoziy ma’noga ega. Chunki *quda, qo’ymoq, itlik, o’rtoq* kabi lug’aviy birliklar faqat ko’chma ma’nosi bilangina matnning semantik strukturasida ishtirok etadi.

Qushlar haqidagi maqollar o’zining qadimiyligi bilan ham ajralib turadi. Masalan, *Qarg’a qarg’aning ko’zini cho’qimaydi* maqoli jahonning

¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 173-б.

² Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол.фанл.докт....дисс.автореф. Тошкент, 1999

ko'pgina mamlakatlari orasida tarqalgan bo'lib, insoniyat yaratgan eng qadimiy maqollardan biridir. Uni milodiy V asrdayoq lotin adibi va tilshunosi A.F.Makrobiy o'z «Grammatikasi»da keltirgan. Maqolning to'g'ri ma'nosi shuki, qarg'a-quzg'unlar odamning yo biror hayvonning ochiq erda qolib ketgan murdasini ko'rib qolsa, avval uning ko'zini cho'qib erkan-da, keyin go'shtini eya boshlar ekan. Ammo tirik qarg'a va quzg'un o'lik qarg'a va quzg'unning ko'zini cho'qimas ekan. SHu holatni esga soluvchi vaziyatlarda insonlarga nisbatan majoziy ma'noda qo'llanadi.

O'zbek xalq maqollari orasida o'simlik nomlari ishtirokida tuzilgan maqollar ham mavjud va ular semantik xususiyatlariga ko'ra hayvon tushunchali maqollarga o'xshab ketadi. Bunday paremlar tarkibida asosan donli ekinlar nomi ko'proq uchraydi. Begona o'tlar donli ekinlarga zidlanadi. Masalan, **Arpa** – *bug'doy osh ekan, oltin-kumush tosh ekan; Arpa emagan otlarim ajriqqa zor bo'ldi, podsho minmagan otlarim gado tagida xor bo'ldi; Arpa og'sa kandugingni tuzat, bug'doy og'sa, somonxonangni; Arpa pishar, ishingiz tushar; Arpa ekkan arpa olar, bug'doy ekkan, bug'doy.*

Maqollarni shakllantirgan ba'zi leksemalar bugungi kunda eskirgan so'z, dialektal birlik yoki kasb-hunar so'zlari bo'lishi ham mumkin. Ana shunday o'rinlarda ma'nosi tushunarsiz so'z maqol mazmunini to'liq anglashimizga imkon bermaydi.

Masalan, **Barimtadan qo'rqqan mol yig'mas, chigirtkadan qo'rqqan ekin ekmas** maqolida qo'llangan barimta so'zi eskirgan, tarixiy so'z hisoblanadi¹. Barimta – ko'chmanchi chorvadorlik davridagi odatlardan biri: bir el yoki bir urug'ning odami yoxud odamlari qo'shni yoki biror begona yurtga borib, mol o'g'irlab keladi. Eb ketilgan “qarz”dan yoki o'g'irlikdan ziyon ko'rgan elning yo urug'ning odamlari ham vaqtini topib, kuch to'plab, “qarzdor”ning, o'g'rining yurtiga bostirib kirib, duch kelgan kishining mol-holini talon-taroj qilib ketadilar. SHuni “barimta” deydilar. Xalqimiz biror

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. Т.: ЎМЭ, 2006. 168-б.

ishni amalga oshirishda ikkilanib turavermay, dadil harakat qilishga undash uchun ushbu maqolni qo‘llaydi¹.

Ba’zi xalq maqollari tarkibida esa kasb-kor bilan bog‘liq atamalar borki, bunday birliklar ham maqol mazmunini to‘liq idrok qilishimizga to‘sqinlik qiladi. Masalan, *Iskartdan ortiq gapirgan – o‘ladi*. Iskart – belgili me’yor, o‘lchov². Bu maqol poyabzal tikuvchi kosiblar doirasidan chiqqan. Ular bir haftada bir-ikki iskartdan ish chiqazganlar. Har qaysi kosibning o‘z iskarti bo‘lgan: ba’zisiniki 10 juft etik, maxsi, kavush, ba’zisiniki – 7,8,9 juft va h. Kosib shuni o‘ziga “bir iskart” deb mo‘ljallab qilib olgan-da, hafta davomida shu mo‘ljaldagi ishni bajarish uchun astoydil harakat qilgan. Agar iskartning hajmi kattaroq qilib belgilangan bo‘lsa, uni bajaraman deb kecha-kunduz tinmay ishlab, o‘zini-o‘zi qattiq qiynab qo‘ygan. Bu maqol majoziy ma’noda “o‘zingni qiynab qo‘yadigan va’dalar berma”, degan ma’noda qo‘llanadi³.

Maqol –matal tipidagi paremalarda mashhur tarixiy shaxslar va payg‘ambarlar nomlari ham qo‘llangan bo‘lib, bunday paremiologik birliklar antroponimlar bilan bog‘langan tarixiy voqeliklarga ishora qilib turadi:

Xalqimiz tilida tez-tez qo‘llanib turadigan quyidagi maqol mazmuni ham diniy afsonaga asoslanadi: *Sulaymon o‘ldi, devlar qutuldi*. Sulaymon payg‘ambar “Baytul muqaddas” ni qurdirganda devlarni majbur qilib ishlatgan emish. U to imorat bitguniga qadar hech qayoqqa qimirlamay, hassaga tayanib turganmish. Devlar Sulaymondan qo‘rqqanlaridan hech qayoqqa ketmay, noiloj ishlayverishibdi. Sulaymon turgan joyida turib o‘lib qolsa ham, devlar buni payqashmabdi. Nihoyat, jasad bir yoqqa ag‘anab tushgach, devlar har tarafga qochib ketishibdi⁴. O‘zbek xalqi bu maqolni qattiqqo‘llik bilan ushlab turilgan vaziyat uning nazoratchisi izmidan chiqqandan so‘ng, o‘sha holatni qayta tiklab bo‘lmagan hollarda qo‘llaydi.

¹ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 30-б.

² ЎТИЛ. II жилд. Т., 2006. 231-б.

³ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 162-б.

⁴ Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. Т., 1990. 379-б.

Bob yuzasidan xulosa

Maqollarning mazmuniy strukturasida asosan ot turkumi tayanch leksema bo'lib qolaveradi. Maqollarda shaxs otlari etakchilik qiladi, ayniqsa, qavm-qarindoshlik otlari bu borada faol. Ko'p hollarda ot leksemalar majoziy xarakterda qo'llanadi. Ana shunday maqollarda ot va it leksemalari tayanch birlik sifatida qo'llanadi. Buni xalqning turmush tarzi bilan izohlash mumkin

Sifat leksemalar shaxs, hayvon, o'simlik, holat belgisi sifatida ot leksemaning ma'nosining konkretlashtirib keladi va bunday sintaktik qurilmalarda atributiv munosabat shakllanadi, sifatlar ish-harakatning belgisini ifodalaganda esa relyativ munosabat yuzaga keladi.

Bir soni otlashib *-ga*, *-ni* va *-niki* affikslari bilan qo'llanadi. Bu esa bir sonining qo'shnichilik munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Asosan bir sonidan gumon olmoshlari hosil qilinganida *-ning* va *-dan* kelishik formalariga ega bo'ladi.

Sifatlar maqolda otlar bilan qo'shnichilik munosabatini shakllantiradi. Sifat ishtirokida tuzilgan maqollarda xarakter-xususiyat va jismoniy nuqson belgilari tayanch leksemalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyat konversiya asosida yuzaga chiqadi.

Mehnat va mehnatsevarlik tushunchalarini targ'ib etuvchi maqollarda esa leksik mundarija bir oz o'zgaradi. Bunday mazmunda shakllangan hikmatlarda yuqoridagi kabi ot leksemalar emas, balki fe'l leksemalar etakchilik qiladi.

Hayvon nomlari ishtirokida tuzilgan maqollar hikmatlar xazinasining juda katta qismini tashkil etadi. Buni xalqimizning fikrini oshkora ifodalamay, ishora-yu ramzlar vositasida etkazish, o'zgalar ko'nglini ehtiyotlash kabi ulug' samimiyati bilan izohlash mumkin. Ayni shunday ifoda imkoniyatiga maqollar vositasida erishish mumkinligini dono xalqimiz juda yaxshi bilgan. SHundan bo'lsa kerak, zoonimlar leksemalar markaziy element sifatida yaratilgan maqollar emotsional-ekspressiv xususiyatlarni

namoyon etadi. Mazkur strukturadagi maqollar bir qator semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan ayrimlari ko'chma ma'noga asoslanadi, ya'ni "shaxsga xos" semasi reallashadi, ayrimlarida esa "hayvon" semasi saqlanadi.

Xalq maqollarini turli yo'sinda tasnif etish mumkin. SHunday bo'lsa-da, tasniflar ob'ektni to'liq qamrab ololmaydi. CHunki xalq durdonalari o'zining ko'lami tufayli bunga imkon bermaydi. Xalq hikmatlarini struktur, semantik, tematik usulda tasniflash orqali bu masalani qisman hal qilish mumkin. Maqollar xalqning so'z boyligi sifatida adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha o'rganish uchun boy manba sifatida tilshunoslikning navbatdagi tadqiqotlari uchun material bo'lib xizmat qiladi.

II bob. Badiiy matnda xalq maqollarining uslubiy xususiyatlari

II.1. Maqollarda qo'llangan asosiy leksik birliklar

Maqol mazmunini shakllantirishda matn tarkibidagi komponentlardan biri tayanch leksema vazifasini o'taydi. SHuningdek, maqol tarkibidagi boshqa bo'lak bilan sintaktik munosabatning turli xil kombinatsiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqollarda asosan ot leksemalar, sifat leksemalar, son leksemalar, fe'l leksemalar tayanch leksema sifatida tanlangan. Albatta, bularning ichida ot leksemalar maqolning semantik tuzilishida etakchilik qiladi. CHunki fikrni ixcham ifodalash maqsadida ot leksemalarning imkoniyati boshqa turkum leksemalar imkoniyatidan ancha ortiq. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ot leksemalardan, asosan, shaxs otlari va somatik a'zolar, o'simlik va uning muchalari nomi, hayvon va uning a'zolari, maishiy-ro'zg'or buyumlari, shuningdek, anemonimlar, kosmonimlar va abstrakt tushunchali otlar maqollarni semantik struktur shakllantirishga xizmat qilgan.

Maqollarda:

ot turkumidan *sher, arslon, bo'ri, tulki, ot, it, tuya, qo'y, ho'kiz, eshak, bo'ta, buzoq, sigir, mol, toy, qulun, qo'zi, uloq, ho'tik, ilon, tovuq, mushuk, sichqon, baliq; qarg'a, burgut, lochin, turna* kabi zoonimlar; *arpa, bug'doy, qovoq, olma, qovun, tol, terak, archa, anor, chigit, yantoq, gul, rayhon* kabi fitonimlar; *qo'l, ko'z, yurak, bosh, oyoq, og'iz, yuz, til quloq, burun, bo'yin, suyak, o'pka, bet, bel, til* kabi somatik leksemalar; shaxs nomlaridan asosan qavm-qarindoshlik otlari (*ota, ona, qiz, o'g'il, kelin, kuyov, chaqaloq, bola, amma, xola, tog'a, qaynona, qaynota, quda, chol, kampir, qo'noq, mehmon, mezbon*) va professionalizmlar (*kosib, bo'zchi, tabib, kinnachi, karnaychi, surnaychi, dehqon, novvoy, qassob, bakovul, yasovul*); *oy, yulduz, quyosh, etti qaroqchi, zuhra* kabi kosmonimlar; lokal leksemalar: *sahro, adir, qir, tog', dala*; ro'zg'or va maishiy buyumlar nomlari: *kosa, tovoq, cho'mich, pichoq, o'roq, qoshiq, qozon, oyna, sandiq,*

ketmon, juvoldiz, supra; taom nomlari: osh, tuxum, obi yovg'on, atala, qimiz, qazi, qarta, tuppa, xamir, taom, non, choy.

sifat turkumidan rang-tus(*oq, qora, ola, qizil, sariq, ko'k*), hajm-o'lchov(*keng, tor, uzoq, yaqin, olis, engil, og'ir, qattiq, yumshoq*), xarakter-xususiyat(*aqlli, dono, ahmoq, nodon, epchil, chaqqon, chiroyli, xunuk, do'st, dushman, xom, semiz, oriq, baxil, saxiy, bemor, kasal, sog'*), jismoniy nuqsonlar(*kar, ko'r, kal, soqov*),ni ifodalovchi leksemalar(*Ola tozining ovidan ham kech, dovidan ham*);

son turkumidan: *bir, ikki, uch, etti, sakkiz, o'n, qo'sh, yarim, yorti, olti, oltmish yuz, qirq, sakson, to'qson, ming, tuman, botmon* so'zlari;

olmosh turkumidan: *u, bu, shu, o'sha,men, sen, biz, siz, o'z, har, har kim, birov, kim, nima, qaysi* kabi leksemalar;

ravish turkumidan: *oz, ko'p, picha, sal, talay, tez, sekin, bugun, erta, kunda, oldin, keyin, avval, so'ng*;

fe'l turkumidan: *o'ylamoq, so'ylamoq, o'rganmoq, yig'lamoq, so'ramoq, sasimoq, bilmoq, emoq, yog'moq, yashamoq, kelmoq, bosmoq, qaramoq, yo'rg'alamoq, yurmoq, o'tirmoq, ekmoq, sug'ormoq, o'rmoq, bermoq, olmoq, bilmoq, tortmoq, siylamoq, yuvmoq, cho'zmoq, o'lchamoq, ko'rinmoq, o'lmoq, maqtamoq, saqlamoq, o'qimoq, demoq, ko'rmoq, tutmoq, eshitmoq, ayamoq* kabi leksemalar etakchi leksema sifatida qatnashadi.

Maqollarning mazmuniy strukturasida asosan ot turkumi tayanch leksema bo'lib qolaveradi. Maqollarda shaxs otlari etakchilik qiladi, ayniqsa, qavm-qarindoshlik otlari bu borada faol: *Qaynona qaynaydi, kelini aynaydi*. Ko'p hollarda ot leksemalar majoziy xarakterda qo'llanadi. Ana shunday maqollarda ot va it leksemalari tayanch birlik sifatida qo'llanadi. Buni xalqningturmush tarzi bilan izohlash mumkin: *Ot oyligin o'ylar, tuya – yilligin, Itining fe'li egasiga ma'lum*.

Sifat leksemalar shaxs, hayvon, o'simlik, holat belgisi sifatida ot leksemaning ma'nosining konkretlashtirib keladi va bunday sintaktik

qurilmalarda atributiv munosabat shakllanadi, sifatlar ish-harakatning belgisini ifodalaganda esa relyativ munosabat yuzaga keladi. Son leksemalar ot –kesimli maqollar tarkibida uchraydi. Bunda bir soni etakchilik qiladi. Bu sonning polisemantik xususiyatiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bir va ikki leksemalari qiyos mazmunidagi maqollarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bir soni qo‘langan maqollarda *uch, etti, qirq, yuz, ming, tuman* sonlari qo‘lanishi ham kuzatiladi. Ayrim maqollar faqat sonlardan tuzilgan misollar ham bor va konversiya hodisasini kuzatishimiz mumkin: *Birniki – mingga, mingniki – tumanga*. Bunday maqollarda bir soni *bosh, o‘lim, bo‘ri, anor, yomon, jag‘, yigit, kun, ko‘rgan, odam, tulki, tayoq, tovuq, odam, pul, tomchi, ona, ezma, yaxshi, yomon, qiz, qish, qora, qo‘y, qorin, qo‘chqor* leksemalari bilan atributiv munosabatga kirishadi. Masalan, *Bir qo‘y ketidan ming qo‘y to‘yadi, Bir bo‘ri etti tulkini etaklaydi, Bir onadan, alvon xil bola*. Bir soni otlashib *–ga, –ni* va *–niki* affikslari bilan qo‘llanadi. Asosan bir sonidan gumon olmoshlari hosil qilinganida *–ning* va *–dan* kelishik formalariga ega bo‘ladi. Bu esa bir sonining qo‘shnichilik munosabatlariga ham ta’sir qiladi.

Sifatlar maqolda otlar bilan qo‘shnichilik munosabatini shakllantiradi. Sifat ishtirokida tuzilgan maqollarda xarakter-xususiyat va jismoniy nuqson belgilari tayanch leksemalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyat aksariyat konversiya evaziga yuzaga keladi: *Ko‘r tutgani qo‘ymas, kar eshitganini*.

Maqollarda ravish turkumi juda ozchilikni tashkil etadi. Bunday leksemalar fe’l valentliklarining aktanti sifatida tanlanadi. Maqollarda fe’l valentliklariga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki fe’l gap aniqlovchisidan tashqari barcha bo‘laklarni boshqarib keladi. Ta’kidlash joizki, aniqlovchini boshqarib kelgan bo‘lak ham fe’l tomonidan boshqarilgan bo‘ladi¹, fe’l – gap asosi, gapning boshqa barcha bo‘laklari va hatto sub’ekti ham unga bog‘liqdir. Fe’l valentligining xususiyati shundaki,

¹ Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. Т.: “Университет”, 2007. 4-б.

u gapning qurilishini belgilaydi¹. Mehnat mavzusidagi maqollarda fe'l valentliklarining aktanti sifatida harakat sub'ektini, ob'ektini, paytini, o'rnini ifodalovchi otlar qo'llanadi: *qazmoq (nimani?) – erni, kesmoq (nimani?)– daraxtni, haydamoq (kim? qachon? nimani?)–dehqon, kuzda, erni.*

Ma'lumki, fe'l predikatning mazmuniy ifodasi oddiy leksik ma'nodan tashqari hech narsa emas, lekin u muayyan ma'noni ifoda etish bilan birga o'zida tuzilajak gapning qolipini ham saqlaydi. Fe'l o'z argumentlari bilan har qanday sintaktik qurilmalarni to'ldirib boradi va sintaksisda markaziy ahamiyatga ega bo'ladi. SHuning uchun ham maqollarda kesim vazifasidagi fe'l valentliklariga alohida ahamiyat berishga to'g'ri keladi.

II.2. She'riy matnda qo'llangan maqollar

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'playdi, shu tajribani turli vositalar bilan kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi. Maqol va hikmatli so'zlar ana shunday ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Dunyoda hikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha ko'z qorachig'iday asrab, avaylab, sayqal berib dilida, tilida saqlab kelmayotgan biror bir xalq yo'q.

Insoniyat yaratgan maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oddiy axloqiy nomalardan tortib kishilar hayotidagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatlarigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi, tabiat va jamiyat hayotining biror-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin.

Xalqimizning ming yillar davomida to'plagan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashtirilgan va tipiklashtirilgan. Ularda ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-

¹ Р.Расулов. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. Т.: Фан, 1989. 16-б.

uqubatlarini his etib turamiz. Bu hissiy kechinmalarning ifodasi bo'lgan poetik matnda maqollarning uslubiy xususiyatlari to'la namoyon bo'ladi.

YOzuvchining so'z tanlash san'ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, uning xalq jonli tili boyliklaridan qanday foydalanishi, uning neologizmlarni qanday qo'llashi, yangi so'z yoki iboralar yasashi kabi masalalar ustida fikr yuritilib, yozuvchining mahorati, uning o'ziga xos stili haqida u yoki bu tarzda hukm chiqariladi¹.

“Devonu lug‘otit turk” asari Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan o’sha davrdagi arab xalifalaridan biri bo‘lmish al Mukladiga bag‘ishlangan. “Devon”da turli xalq hikmatlari, janglar tasviriga bag‘ishlangan to‘rtliklar bilan birgalikda 400 ta turkiy maqol va hikmatlar mavjud.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asariga asar muallifining o‘zidan boshqa real baho beradigan kishi yo‘q. U jumladan, shunday deydi: “Men bu kitobni alifbo tartibida tartib berdim. Unga turkiy xalq maqollari, to‘rtliklari, folklor qo‘shiqlari va nasriy namunalardan bezak berdim. Men kitobni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun undagi tushunilishi qiyin bo‘lgan jihatlariga tushuntirishlar berdim. Bunga yillab mehnat qildim. Ayniqsa, donishmandlik xususiyatiga ega bo‘lgan maqollarga ahamiyat qaratdim. Ular halqning baxti va baxtsizligi, yaxshi va yomon kunlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, uning qadriyatlari darajasiga ko‘tarilgan”².

Masalan: ***Tilku oz iniga ursa uzuz bolur***/ Tulki o‘z uyasiga qarab hursa, *qo‘tir bo‘ladi*/, ***Ermaguga ashik art bo‘lur*** /YAlqovga eshik ostonasi ham tog‘ tepasidek ko‘rinadi/, ***Erik erni yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘***/ Tirishqoqning labi yog‘liq, erinchoqning boshi qonliq/, ***Ermaguga bulit yuk bolur***/ YAlqovga bulut soyasi ham yuk bo‘ladi/, ***Emgak ekinda qalmas*** /Mehnat bo‘sh ketmaydi/, ***Erdamizdan qut chertinur*** /Hunari va odob–fazilati bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi/, ***Teva silkinsa, eshakka yuk chiqar*** /Tuya silkinsa, undan bir

¹ Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. Т., 1962. 315-б.

² Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар луғати. – Тошкент:Фан, 1960.

*eshakning yuki chiqadi/, **Tikmagincha unmas, tilamaganicha bolmas**/Ekilmaguncha hosil unmaydi, tilamagunicha bo'lmaydi/, **Qush qanatin, er atin**/Qush qanoti bilan, er oti bilan/, **Tutushmagincha tuzulmas, tubirmagincha achilmas**Urushmaguncha yarash bo'lmas, shamol qo'zg'almaguncha havo ochilmas/ **Arpasiz at ashumas, arqasiz alp cherik siyumas**/Arpasiz ot qir osholmas, yordamchisiz yigit jangda enga olmaydi/ kabi.*

SHulardan 250 dan ortiq hikmatlar mazmun jihatidan ham, shakl jihatidan ham hozirgi o'zbek tilida bugungidek yangrab turibdi: *YOg'ochni uzun kes, temirni qisqa kes, Ko'kka tupursa, yuzga tushar, Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi.*

O'zbek mumtoz adabiyotida maqollar asosan g'azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun qo'llanilgan, natijada, misralarning sodda va ravon o'qilishga, qolaversa, nutqiy ta'sirchanlikka erishilgan. Jumladan, Alisher Navoiy xalq maqollaridan g'azal baytining dastlabki misrasidagi fikrni ta'kidlash va tasdiqlash uchun keng foydalangan. Masalan:

CHun Navoiy ko'ngli sindi emdi lutfung ne osig',

Kim ushatsa shishani butmas oni payvand ila.

YOki:

May batining ko'r nishot afzoliq'in huzn ahlig'a,

Kim kuyar o'lu qurug' chun nayistong'a tushti o't

kabi xalq maqollari baytda sabab-qiyos munosabatini shakllantirar ekan, ayni paytda baytda ilgari surilgan fikrni asoslash uchun ham xizmat qilgan.

Ayrim ijodkorlarda aynan bir xil matndagi maqol qo'llansa-da, biroq ularda maqol komponentlarining transformatsiyasi ko'zga tashlanadi. Bunday farqlar maqolning shakliy strukturasiga daxldor bo'lsa-da, biroq semantik jihatdan katta farq sezilmaydi. Natijada, badiiy matnda xalq maqollarining turli xil variantlari vujudga keladi. Masalan:

Pil o'lsa sening xasming, desangki zarar topmay,

Bir pashshag'a olamda etkurma zarar hargiz. (G'S)

Navoiy qalamiga mansub bo'lgan baytdan o'rin olgan “*Bir pashshag'a olamda etkurma zarar hargiz*” maqoli Mashrab ijodida transformatsiya qilingan. Qiyoslaymiz:

... Bas kishiga tekmasun xavfu xatar,

Mo'rg'a ozor bermas yaxshilar.

Agar har ikki ijodkor tomonidan qo'llangan maqollarni semantik jihatdan qiyoslasak, xalq hikmatining har ikki varianti ma'no ottenkalariga ko'ra farqlanadi. Chunki, pashsha ham, chumoli ham hasharot hisoblansa-da, chumoliga nisbatan ijobiy baho, pashshaga esa salbiy baho munosabati mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Agar ana shu munosabatlar nuqtai nazaridan tahlil etiladigan bo'lsa, nafaqat beozor, balki insonga ozor etkazuvchi pashshaga ham ranj etkazmaslik kerak ekan, demak, bu o'rinda Navoiy qalami mahsuli bo'lgan bayt mazmuniy salmoqdorlikka ega ekanligini payqash qiyin emas. Bu esa badiiy matnni mazmuniy jihatlarini ochib berishga eng nozik lisoniy tahlillar orqali erishishimiz mumkinligini ko'rsatib turibdi.

G'azalda maqol keltirish uchun ko'pincha “masaldurur”, “masalkim”, “chun masal bo'ldi” singari jumlar qo'llangan, ular ta'kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan. G'azalda maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida joylashtirilgan. Bunday bayt misralari o'zaro *sabab-natija*, *qiyos* va *o'xshatish* munosabatlarini ifodalagan.

Maqollar tilning ko'rki hisoblanadi. Ulardagi ixcham hajm va ma'no xalq ma'naviyati, zakovati mahsulidir. Maqollardan nutqda foydalanish mazmunni boyitishga, ta'sirni oshirishga va shuning barobarida tilning ko'rkamligini namoyon etishga olib keladi, nutqning xalq tiliga yaqin bo'lishini ta'minlaydi. Masalan:

Hatto qo'ng'iz o'z bolasini,

Oppog'im deb bo'lar ekan shod,

Oppog'im deb bo'lar ekan yod. (H. Olimjon)

Bu maqol xalq tilida “qora qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im derkan”, shaklida qo‘llanib, “ona uchun o‘z bolasining nuqsoni ko‘rinmaydi, aybi bilinmaydi” degan ma’noda ishlatiladi.

Maqol matni qisqa, ixcham va lo‘nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois, ijodkorga qo‘l keladi. Maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to‘g‘riligi isbotlangan holda, qayta-qayta ishlanib vujudga keladi¹.

Maqollar xalqning ijod mahsullaridan biri sifatida mukammal tuzilish va isbot talab qilmas mazmunga ega bo‘ladi. Nasrga nisbatan she‘riyatda maqol matnidan foydalanish uni she‘r ritmi va qolipiga tushirishda mazmuniga putur etkazmagan holda, qayta ishlash ijodkordan muayyan mahorat, bilim va katta tajribani talab etadi. Hamid Olimjon she‘rlarida qo‘llangan maqollar shoirning ana shunday mahoratidan darak beradi. Masalan:

Tushar doim esimga – o‘zbek maqolidir bu:

Kim avval musht ko‘tarsa, albatta qo‘rqoq keldi. (H. Olimjon,)

SHoir she‘r misralarida “Qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar”, “Mard maydonda sinaladi” kabi o‘zbek maqollaridan g‘oyat ustalik bilan foydalangan va natijada she‘riy matnga mantiqiylik, xalqchillik ruhini va chuqur ma‘noni singdira olgan.

Oydin Hojjeva “Ko‘zimning oqu qorasi”(1996) she‘rlar to‘plamining o‘zidayoq 100 dan ortiq maqol, hikmatli iboralar ishlatgan². SHoira o‘z she‘rlarida vatanparvarlik, insoniylik, adolat, ahillik, do‘stlik tuyg‘ularini ifodalash uchun xalq maqollaridan unumli foydalangan:

YOlg‘on –yashiq-larga o‘t ketdi bugun,

Ko‘kragiga urib qasam ichganga,

Boylik deb imondan kechganga,

Sichqonning ini bo‘ldi ming tanga.

YOKi:

YUrtni malomatga qo‘ymoq yomondir,

¹ Курбонова С. Хамид Олимжон шеърларида халқ мақолларидан фойдаланиш // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. Фарғона. 2010. 137-б.

² Хусаинова Ф. Ойдин Ҳожиёвнинг мақол ва иборалардан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 2-сон. 90-б.

O'tmas pichoq bilan so'ymoq yomondir.

Bir kuygan qatiqni puflab ichar-ku,

O'z qavmidan tili kuygan yomondir.

She'r misralarida xalq maqollarini qo'llash orqali obrazli ifodalar hosil qilish nafaqat zamonaviy she'riyat, balki mumtoz she'riyat uchun ham xos xususiyat sanaladi.

II.3. Nasriy matnda qo'llangan maqollar

Evropaning taniqli sharqshunos olimi Herman Vamberi XIX asrning ikkinchi yarmida o'lkamizga qilgan safaridan qaytgach, quyidagilarni yozgan edi: " ... SHarq qadimdan she'riyat tuyg'ulari o'lkasi bo'lib kelgan ... SHuning uchun ham o'tovda istiqomat qiluvchi kishilarda she'riyatga bo'lgan ishtiyoq Parij va Londondagi ma'lumotli jamiyat a'zolariga qarganda kuchliroq ekanligiga hech kim ajablanmasa kerak ... O'rta Osiyoda bir-biriga muhabbat qo'ygan yosh oshiq-ma'shuqlar ham, ruhoniylar va oqsuyaklar ham – xullsas, hamma-hamma poetik ijodiyotga bir xilda qiziqadi ... Maqollarni yozma tilda ham, jonli tilda ham uchratish, yurt kazolarining saroyida ham, ko'chmanchilarning o'tovida ham eshitish mumkin ... Sahro o'g'loni bunday otalar so'zini hamma vaqt yuziga jiddiy tus kiritgan holda tinglaydi. Maqol ma'nosiga zid bo'lgan hech qanday oqilona gap, hech qanday ishontiruvchi so'z uning fikriga ta'sir qila olmaydi, uning tabiatidagi tug'ma mutassiblik xech narsaga ajdodlar va ular qoldirgan hikmatlarning donolik bilan aytilganiga, noto'g'ri aytilmaganiga astoydil, qattiq ishonchidan boshqa hech bir narsaga bunchalik kuchli tarzda namoyon bo'lmaydi"¹.

Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida qo'llangan maqollarni o'rgangan Z.SHukurova mazkur asarda maqollarning bir qator uslubiy xususiyatlarini aniqlagan. "Qissasi Rabg'uziy"da qo'llangan maqollar muallifning ijodiy niyatini, maqsadini ochib berish, hikoyatlar so'ngida xulosa o'rnida, qahramonlar muloqotlari tarkibida qo'llanib, ularning insoniy sifatlarini ochib berish uchun

¹ Вамбери Г. Очерки Средней Азии. Москва., 1968. Стр. 323-324

qo‘llangan. Rabg‘uziy maqollarni turli usulda ishlatar ekan, ko‘pincha ularni “aymishlar”, “ma‘lum bo‘ldikim” kabi maxsus iboralar orqali ifodalaydi¹.

Asarda qo‘llangan maqollar tuzilishiga ko‘ra she‘riy yoki nasriy ko‘rinishga ega. Maqollar she‘riy shaklda ham qissa tarkibiga singdirilgan, zero “xalq donoligining ifodasi bo‘lmish maqollarning jarangdorligi, ohangdorligi she‘riy shaklda yanada ortadi”².

Qamug‘ yignalar to‘n tika kizdurur,

YAna o‘zin ko‘rsang, yalang‘och qolur.

CHirog‘ma ulasho‘ kuyar o‘rtanur,

Azinlarga ko‘rsang yorug‘luq berur.

Said Ahmad o‘z asarlarida xalq maqollaridan samarali foydalangan. YOzuvchi kinoyaviy mazmundagi maqollarni ko‘proq qo‘llagan. Ko‘pincha, maqollar butun hikoya mazmuniga ishora qiladi. Masalan “Xomtalash” hikoyasida qo‘llangan maqolda hikmatlar bejizga aytilmasligi, maqollarda ma‘lum bir hayotiy voqelik, holat ko‘zda tutilganligini ta’kidlaydi:

«Kambag‘al bo‘lsang ko‘chib boq, boyvachcha bo‘lsang o‘lib boq», degan gapda hikmat ko‘p ekan.

Ba‘zan muloqot ishtirokchilari tomonidan qo‘llangan maqollar tinglovchiga ta’sir etuvchi nutqiy vositaga aylanadi:

— *Sizdaqa tekinxo‘r murdalarning ko‘pini ko‘rganmiz. Ishlagan tishlaydi. CHo‘zma-chalpak haqiga lahadbop qilib guvala quyib berasiz. Bo‘lmasa sag‘anangizga boshqa o‘lik qo‘yvoraman, — deb to‘polon qilib qoldi.(Sag‘ana)*³

Keyingi yillarda “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalidagi ayrim maqolalarda an‘anaviy va sistem tilshunoslik namoyandalarining formal va substansial tahlil haqidagi pozitsiyalarini bayon qilishda oppozitsiyadagi tilshunoslar fikrlariga o‘z munosabatlarini ilmiy matnda qo‘llangan maqollar orqali ifodalagan o‘rinlar ham uchraydi. Bu esa maqollarning qo‘llanish doirasini ilmiy uslub tomon kengayganligini ko‘rsatadi. SHuningdek, ilmiy tilda qo‘llangan maqol yangi

¹ Шукурова З. “Қиссаси Рабғузӣ”да мақоллар / Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, №2. 97-б.

² Соатов Б. Ўзбек халқ мақоллари поэтикасига доир мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 1992, №5-6. 41-б.

³ Саид Аҳмад. Танланган асарлар. II жилд. Ҳажвиялар, пьесалар. Тошкент: Шарқ, 2000

stilistik xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Masalan: “Tadqiqotning ongli va izchil metodologik asosi uni fanda juda ko‘p uchraydigan mantiqiy va gnoseologik xatodan – Attoru Rumiylar *timqorong‘ilikda filni yaxlit “ko‘rish”ga intilgan johillar*, Mir Alisher *ko‘rlar*, Frensis Bekon esa “*g‘or ruhi*” bandilari deb atagan va o‘zbek xalqi *“ko‘r tutganini, kar eshitganini qo‘ymas”* maqolida ixcham ifodalagan mahdudlikdan asraydi”. YOki quyidagi misolni ko‘raylik: “...Ammo bir yo‘nalishda hosil qilingan hukm/ xulosa ikkinchi yo‘nalish vakiliga “yoqmasligi” tabiiy va buni xalqimiz *“qo‘ng‘iz bolasini oppog‘im deydi”* maqolida mujassamlashtirgan¹.

Ko‘rinib turibdiki, maqollar nafaqat badiiy va publitsistik uslubda, balki ilmiy uslubda ham muallifning nutqiy niyati va kommunikativ maqsadini ifodalashning muhim usullaridan biri.

Dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmunni, so‘z san’atining durujavohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang *maqollar* nutqimizning ekspressiv vositalari orasida eng ta’sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga ega: “*Men qadimgi donishmandlarning bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko‘zdan kechiraman; agarda biz ularda bir yaxshi narsaga duch kelsak, uni o‘zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan bo‘lamiz*” (Suqrot).

¹ Неъматов Х. Ўзбек тили ва адабиёти /Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида. №4, 2009. 38-б.

Bob yuzasidan xulosa

Maqollarda asosan ot leksemalar, sifat leksemalar, son leksemalar, fe'l leksemalar tayanch leksema sifatida tanlangan. Albatta, bularning ichida ot leksemalar maqolning semantik tuzilishida etakchilik qiladi. Chunki fikrni ixcham ifodalash maqsadida ot leksemalarning imkoniyati boshqa turkum leksemalar imkoniyatidan ancha ortiq. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ot leksemalardan, asosan, shaxs otlari va somatik a'zolar, o'simlik va uning muchalari nomi, hayvon va uning a'zolari, maishiy-ro'zg'or buyumlari, shuningdek, anemonimlar, kosmonimlar va abstrakt tushunchali otlar maqollarni semantik struktur shakllantirishga xizmat qilgan.

O'zbek mumtoz adabiyotida maqollar asosan g'azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun qo'llanilgan, natijada, misralarning sodda va ravon o'qilishga, qolaversa, nutqiy ta'sirchanlikka erishilgan.

Ayrim ijodkorlarda aynan bir xil matndagi maqol qo'llansa-da, biroq ularda maqol komponentlarining transformatsiyasi ko'zga tashlanadi. Bunday farqlar maqolning shakliy strukturasiiga daxldor bo'lsa-da, biroq semantik jihatdan katta farq sezilmaydi. Natijada, badiiy matnda xalq maqollarining turli xil variantlari vujudga keladi.

G'azalda maqol keltirish uchun ko'pincha "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo'ldi" singari jumlar qo'llangan, ular ta'kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan. G'azalda maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida joylashtirilgan. Bunday bayt misralari o'zaro *sabab-natija*, *qiyos* va *o'xshatish* munosabatlarini ifodalagan.

UMUMIY XULOSA

O'zbek tilida hikmatli iboralarni umuman m a q o l deb atashadi. Ammo bu tushunchani ifodalash uchun yigirmadan ortiqroq termin qo'llanadi: *maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so'zi, donishmandlar so'zi, donolar so'zi, yaxshilar so'zi, burungilar so'zi, ulusninn so'zi, avomunnos masali, hikmatli so'z* va hokazo.

Sodda maqollar tuzilishi jihatidan eng kamida ikki elementdan (gap bo'lagidan)tuzilgan bo'ladi va tugallangan fikr ifodalaydi. Har bir maqolda ikkita gap bo'lagi bo'lishi va ular ikki intonatsion markazga bo'linishi shart.

Murakkab maqollar ikki va undan ortiq komponentdan tuzilgan bo'ladi. Bunday maqollar qo'shma gap xarakterida bo'ladi. Murakkab maqol va matallar ikki va to'rt qismli bo'ladi. Undan ortiqlari juda kam uchraydi.

Maqollarni to'plab, nashr ettirganlarning har biri ularni o'zicha tasnif qilgan. MAqoollar asosan alifbo tartibida, maqoldagi asosiy so'zga qarab tasnif etish tartibi (leksik yoki qomusiy tasnif)da, monografik, genetik, tematik jihatdan tasnif qilingan. Tematik jihatdan tasniflash eng samarali usul hisoblanadi va bunday tasnif asosida xilma-xil mavzuiy guruhlarini belgilash mumkin bo'ladi.

Maqollarni tasniflashda ularni struktur jihatdan sodda va murakkab turlarga ajratish, o'z navbatida ular ham ichki bo'linishlarga ega ekanligini aniqlash, bunda matnda ishtirok etuvchi gap bo'laklari va gap komponentlarini e'tiborga olish; semantik xususiyatiga ko'ra esa maqollar o'z va ko'chma ma'nosida, ba'zan har ikki ma'nosida ham qo'llanishi; tematik jihatdan esa ularni rang-barang tasniflash mumkinligi, buning uchun matnda ishtirok etuvchi asosiy so'z yoki matn mazmuni asos bo'lishini hisobga olish kerak.

Maqollar xalqning so'z boyligi sifatida adabiy tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini atroflicha o'rganish uchun boy manba

sifatida tilshunoslikning navbatdagi tadqiqotlari uchun material bo'lib xizmat qiladi.

Ongimizda hosil bo'lgan assotsiativ guruhlar ma'lum umumiy belgisiga ega bo'lgan munosabat a'zolarining yaqinlashuvi bilan chegaralanmaydi. Ong har qanday munosabatda munosabat a'zolarini bog'lovchilar xarakterini ham qamrab oladi. Natijada necha assotsiativ qator bo'lsa, shuncha farqli munosabatni hosil qiladi. Ishda jins xalq maqollarida jins ifodalashning 10 ga yaqin ko'rinishlari aniqlandi.

Mehnat mavzusidagi maqollarda fe'l valentliklarining aktanti sifatida harakat sub'ektini, ob'ektini, paytini, o'rnini ifodalovchi otlar qo'llanadi

Maqollarning mazmuniy strukturasida asosan ot turkumi tayanch leksema bo'lib qolaveradi. Maqollarda shaxs otlari etakchilik qiladi, ayniqsa, qavm-qarindoshlik otlari bu borada faol. Ko'p hollarda ot leksemalar majoziy xarakterda qo'llanadi. Ana shunday maqollarda ot va it leksemalari tayanch birlik sifatida qo'llanadi. Buni xalqning turmush tarzi bilan izohlash mumkin

Sifat leksemalar shaxs, hayvon, o'simlik, holat belgisi sifatida ot leksemaning ma'nosining konkretlashtirib keladi va bunday sintaktik qurilmalarda atributiv munosabat shakllanadi, sifatlar ish-harakatning belgisini ifodalaganda esa relyativ munosabat yuzaga keladi.

Bir soni otlashib *-ga*, *-ni* va *-niki* affikslari bilan qo'llanadi. Bu esa bir sonining qo'shnichilik munosabatlariga ham ta'sir qiladi. Asosan bir sonidan gumon olmoshlari hosil qilinganida *-ning* va *-dan* kelishik formalariga ega bo'ladi.

Sifatlar maqolda otlar bilan qo'shnichilik munosabatini shakllantiradi. Sifat ishtirokida tuzilgan maqollarda xarakter-xususiyat va jismoniy nuqson belgilari tayanch leksemalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu xususiyat konversiya asosida yuzaga chiqadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida maqollar asosan g'azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun qo'llanilgan, natijada, misralarning sodda va ravon o'qilishga, qolaversa, nutqiy ta'sirchanlikka erishilgan.

Ayrim ijodkorlarda aynan bir xil matndagi maqol qo'llansa-da, biroq ularda maqol komponentlarining transformatsiyasi ko'zga tashlanadi. Bunday farqlar maqolning shakliy strukturasiga daxldor bo'lsa-da, biroq semantik jihatdan katta farq sezilmaydi. Natijada, badiiy matnda xalq maqollarining turli xil variantlari vujudga keladi.

G'azalda maqol keltirish uchun ko'pincha "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo'ldi" singari jumlar qo'llangan, ular ta'kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan. G'azalda maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida joylashtirilgan. Bunday bayt misralari o'zaro *sabab-natija*, *qiyos* va *o'xshatish* munosabatlarini ifodalagan.

"Qissasi Rabg'uziy"da qo'llangan maqollar muallifning ijodiy niyatini, maqsadini ochib berish, hikoyatlar so'ngida xulosa o'rnida, qahramonlar muloqotlari tarkibida qo'llanib, ularning insoniy sifatlarini ochib berish uchun qo'llangan. Rabg'uziy maqollarni turli usulda ishlatar ekan, ko'pincha ularni "aymishlar", "ma'lum bo'ldikim" kabi maxsus iboralar orqali ifodalaydi.

Maqollardan nutqda foydalanish mazmunni boyitishga, ta'sirni oshirishga va shuning barobarida tilning ko'rkamligini namoyon etishga olib keladi, nutqning xalq tiliga yaqin bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbek mumtoz adabiyotida maqollar asosan g'azal baytida ifodalangan fikrni asoslash yoki chog'ishtirish uchun qo'llanilgan, natijada, misralarning sodda va ravon o'qilishga, qolaversa, nutqiy ta'sirchanlikka erishilgan.

G'azalda maqol keltirish uchun ko'pincha "masaldurur", "masalkim", "chun masal bo'ldi" singari jumlar qo'llangan, ular ta'kid va qiyosni kuchaytirishga xizmat qilgan. G'azalda maqollar, asosan, baytning ikkinchi misrasida joylashtirilgan. Bunday bayt misralari o'zaro *sabab-natija*, *qiyos* va *o'xshatish* munosabatlarini ifodalagan.

Ayrim ijodkorlarda aynan bir xil matndagi maqol qo'llansa-da, biroq ularda maqol komponentlarining transformatsiyasi ko'zga tashlanadi. Bunday farqlar maqolning shakliy strukturasiga daxldor bo'lsa-da, biroq semantik jihatdan katta farq sezilmaydi. Natijada, badiiy matnda xalq maqollarining turli xil variantlari vujudga keladi.

Nasrga nisbatan she'riyatda maqol matnidan foydalanish uni she'r ritmi va qolipiga tushirishda mazmuniga putur etkazmagan holda, qayta ishlash ijodkordan muayyan mahorat, bilim va katta tajribani talab etadi.

Said Ahmad o'z asarlarida xalq maqollaridan samarali foydalangan. YOzuvchi kinoyaviy mazmundagi maqollarni ko'proq qo'llagan. Bu holat hajviy asarlarning tabiatidan kelib chiqqan holda tanlansa kerak. Ko'pincha, birgina maqol butun hikoya mazmunini qamrab olishi ham mumkin. U holda maqollar asar annotatsiyasiga teng bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.:Ўзбекистон, 1999.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008.
3. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. -Т. : Ўқитувчи, 1984.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Т., 2002
5. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. –Т.: ФАН, 2006.
6. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): ДДА. -Тошкент, 1999.
7. Қуронов Д. Ва б. Адабиётшунослик луғати.-Т.: Академнашр, 2010.
8. Қурбонова С. Ҳамид Олимжон шеърларида халқ мақолларидан фойдаланиш // Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. Фарғона. 2010.
9. Миртожиев М. Ўзбек тилидаги феъл валентликлари. -Т.: Университет, 2007.
- 10.Неъматов Ҳ. Ўзбек тили ва адабиёти /Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстансиал йўналишлар хусусида. №4, 2009. 38-б.
11. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. -Андижон, 2006.
12. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. -Т.: Фан, 1989.
- 13.Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. Т., 1970.
14. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Т., 2010.
15. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. -Т., 1987.
- 16.Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок. АКД. – Ташкент, 1985.

17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. И-В жилдлар. -Т.: ЎМЕ, 2008.
18. Ўзбек халқ мақоллари. ИИ томлик. -Т.: Фан, 1987. Итом.
19. Ўзбек халқ мақоллари. –Т., 1981.
- 20.Хусаинова Ф. Ойдин Ҳожиеванинг мақол ва иборалардан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. 2009, 2-сон. 90-б.
21. Шоабдурахмонов Ш., Шораҳмедов Ш.. Ҳикматнома. -Т., 1990.
- 22.Шукурова З. “Қиссаси Рабғузӣ”да мақоллар / Ўзбек тили ва адабиёти. 2012, №2. 97-б.
- 23.Саид Аҳмад. Танланган асарлар. ИИ жилд. Ҳажвиялар, песалар. Тошкент: Шарқ, 2000.